


# ONA TILI



8



**Sh. A. Karimova, O. A. Maxmudova**

# **ONA TILI**

*Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan  
maktab va maktab-internatlarning 8-sinfi uchun darslik*

**2-nashr**

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi  
vazirligi tomonidan tasdiqlagan

**TOSHKENT  
«NISO POLIGRAF»  
2015**

811.512.133(075) - Ўзбек тили

K 25

UO'K 372.881.512.133(075)

KBK 81.2 O'zb

O-58

Taqrizchilar: V. S. Raxmanova, Nizomiy nomidagi TDPU maxsus ta'lif metodikalari kafedrasi professori.  
S. Turdiyeva, Toshkent shahar 25-sonli maxsus maktab o'qituvchisi.

**Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari  
hisobidan chop etildi**

Ona tili. Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan davlat ta'lif muassasalarining 8-sinfi uchun darslik. 2-nashr/Sh. Karimova, O. Maxmudova – T.: «Niso Poligraf» nashriyoti, 2015. – 128 b.

UO'K 372.881.512.133(075)

KBK 81.20'zb

ISBN 978-9943-4317-7-5

15/11 Alisher Navoiy  
nomidagi  
7875 O'zbekiston MK

© Sh. Karimova, O. Maxmudova, 2015-y.  
© «Niso Poligraf» nashriyoti, 2015-y.

1044101  
391



*Erkin Vohidov*

## O'LKA

Bog'laringni sayr etganimda  
Sen bor eding qalbda, Vatanim  
Bog' husniga she'r bitganimda  
Uni dastlab senga atadim.

Minglab tilda madhingni so'zlar  
Bunda o'sgan har bitta daraxt.  
Nur emadi millionlab ko'zlar,  
Ko'kdan sening husningga qarab.

Jilmayadi o'zida yo'q shod  
Yangi oy ham ketmay qoshingdan  
Etak-etak olib koinot  
Yulduzlarni sochar boshingdan.

*She'rni ifodali o'qing. Ko'chiring.*

# TAKRORLASH

---

## SODDA VA QO'SHMA GAPLAR

1-mashq. *Rasmni kuzating.*



*Rasm asosida 4–5 ta gap tuzing va yozing.*

## **2-mashq. O'qing. Sodda va qo'shma gaplarni aniqlang.**

Kuz fasli keldi. Kunduzgi havo iliq, lekin kechalari salqin bo'ladi. Pishgan mevalarning og'irligidan ko'pchilik daraxtlarning shoxlari yerga egilib qolgan. Dehqonlar hosil yig'yaptilar. Talaba va o'quvchilar hosilni yig'ishga yordam beryaptilar.

## **3-mashq. Berilgan sodda gap juftlarini biroq, lekin, shuning uchun, shu sababli, chunki bog'lovchilari yordamida bitta gapga birlashtiring.**

1. Kuz boshlandi. Ko'pgina qushlar uchib ketdilar.
2. Osmonda qoramtilar bulutlar ko'payadi. Yomg'ir yog'adi.
3. Gulnora akasini kutdi. Furqat tezda kelavermadi.
4. Non bebaho ne'mat. Uvol qilmang.
5. O'quvchilar maktabdan qaytishdi. Darslar tugadi.

## **SODDA YOIQ GAPDAGI EGA VA KESIM**

### **4-mashq. O'qing. Gaplardagi ega va kesimni toping.**

1. Durdona barvaqt turdi.
2. Kuz fasli boshlandi.
3. Bolalar anhorda cho'mildilar.
4. Shifokor kasalni ko'ryapti.
5. O'tkir singlisiga yordam berdi.
6. Buvi o'rindiqda o'tiribdi.

### **5-mashq. Sodda gapdagagi kesimdan so'roq berib, gaplarni kengaytiring va ko'p bo'lakli gaplar tuzing.**

N a m u n a : A'zo bo'ldik. (Qayerga?) a'zo bo'ldik? To'garakka a'zo bo'ldik. (Qanday?) to'garakka a'zo bo'ldik? Raqs to'garagiga a'zo bo'ldik.

1. Maktabga bordi.
2. A'zo bo'ldik.
3. Tayyorlab qo'yaman.
4. Sinfda o'qiymiz.
5. Bolalar o'ynadilar.

**6-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ular gapda qanday bo'lak ekanini aniqlang.*

## BILIB QO'YING

Jahon sport musobaqalarida g'olib chiqqan sportchilar oltin medal bilan taqdirlanilar. Ularning g'alabasi sharafiga Vatan bayrog'i ko'tariladi. Davlat madhiyasi yangraydi. Ikkinci va uchinchi o'rinni egallagan sportchilarga kumush va bronza medali beriladi.

## GAPNING BOSH VA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI

**7-mashq.** *Berilgan so'zlardan gap tuzing va yozing. Eganing tagiga bir, kesimning tagiga ikki to'g'ri chiziq chizing.*

1. Zarur, sog'liqni, mustahkamlash, uchun, jismoniy, mehnat, mashg'ulotlari, badantarbiya, va. 2. Bo'ladi, butun, organizmga, katta, zarar, chekish. 3. Asrang, tabiatni, bolalar.

**8-mashq.** *Gaplarni o'qing. Gapning bosh bo'laklarini aniqlang va namunadagidek belgilang.*

N a m u n a: Bulutlar har tomonga tarqalib ketdi.

1. Bog'dagi daraxtlarning barglari quyosh nurida yaltiraydi, shoxlarida qushlar sayraydi. 2. Mayin tong shabadasi rang-barang gullarni sekin tebratib, atrini har tomonga sepdi. 3. Bulutlar har tomonga tarqalib ketdi. 4. Ko'm-ko'k o'tloqlar ustida to'rg'aylar chug'urlay boshladи. 5. Daraxtlarda kurtak ko'rina boshladи.

**9-mashq.** So‘zlarni o‘qing. Ular ishtirokida gaplar tuzing.  
Maktab oshxonasi haqida tuzgan gaplaringizni yozib oling.  
Gaplarning bosh bo‘lagini aniqlang.

## OSHXONADA

Maktabimizda, oshxona, o‘quvchilar, tanaffus, vaqtida, darsdan, keyin, oshxonada, ovqatlanadilar, sho‘rva, lag‘mon, palov, boshqa ovqatlar, navbatchi, o‘quvchilar, toza qo‘l, yuvish, ozoda, oshxonamiz, har doim.

**10-mashq.** O‘qing. Har bir gapdagi o‘zaro bog‘langan so‘zlarni so‘roqlar yordamida aniqlab, ularni namunadagidek yonma-yon yozing.

N a m u n a: *Dehqonlar mevali daraxtlarni kuzda ekadilar.*

1. Yozning issiq kunlarida bolalar daryoning sohillarida cho‘mildilar. 2. Kechasi osmon qorong‘ilashganda oy bilan yulduzlar yaxshi ko‘rinadi. 3. Daraxtlar yam-yashil ranglar bilan qoplangan.

**Dehqonlar** (nima qiladilar?) **ekadilar**.

(qachon ekadilar?) **kuzda ekadilar**.

(nimalarni ekadilar?) **daraxtlarni ekadilar**.

**(qanday daraxtlarni ekadilar?) mevali daraxtlarni ekadilar.**

## DARAK, SO'ROQ, BUYRUQ VA HIS-HAYAJON GAPLAR

**11-mashq.** *O'qing. Har bir gap qanday mazmun bildirayotganini ayting.*

*Gaplarni quyidagi tartibda ko'chiring:* 1. *Darak gap.*  
2. *So'roq gap.*

1. Ipak matolar ipak qurti o'ragan pillalardan olinadi.  
2. Oltinchi qavatda kim yashaydi? 3. Salim bilan katta tanaffusda tushlikka oshxonaga bordik. 4. Poytaxtimiz Toshkent kun sayin chiroy ochib bormoqda. 5. Nima uchun tabiatni asrash kerak? 6. Bahor kelishi bilan janubdan qushlar uchib keladi.

**12-mashq.** *O'qing. Darak, so'roq, buyruq va his-hayajon gaplarni aniqlang.*

### XANDALAR

- Oyijon uyqu suvdan qo'rqedimi?
- Nega unday deyapsan?
- Yuzimni yuvsam uyqum qochib ketadi-ku?!

\* \* \*

- Sinfimizda rosa tomosha bo'ldi. Huriyat dutor chaldi.  
Ubaydulla doira chaldi. Anvar rubob chaldi.

- Sen-chi? Sen nima qilding?
- Men chapak chaldim.

**13-mashq.** *Latifani o'qing. Maqsadga ko'ra gap turlarini aniqlang. Latifani ko'chirib yozing.*

### IKKINCHI SAVOL-KU?

Afandidan imtihonda o'qituvchisi:

- Sizga ikkita kichik savol beraymi yoki bitta katta savol beraymi? – deb so'radi.

Afandi o'ylanib turib:

- Bitta savol berib qo'ya qoling, – dedi.
- Odam qanday paydo bo'lgan? – dedi o'qituvchi.
- Odamni onasi tuqqan.
- Undan avval-chi?
- Kechirasiz, domla, – dedi Afandi, – bu ikkinchi savol-ku?

## UYUSHIQ BO'LAKLI GAPLAR

**14-mashq.** *O'qing. Uyushiq bo'lakli gaplarni topib, uyushiq bo'laklarning o'zaro qanday bog'langanini ayting. Mashqni ko'chiring.*

### ОY YERNING YO'LDOSHI

Oy bizga eng yaqin bo'lgan osmon jismi. Teleskop bilan qaraganda oyda tog'lar, katta tekisliklar va pastliklar yaxshi ko'rindi. Bularni «Oy dengizlari» deb atashadi, lekin ularda suv yo'q, ular quruq. Oyda suv va havo yo'q. Oy yoritadi, biroq isitmadi. Oy bizning sayyoramizdan kichik bo'lgani uchun tortilish kuchi kam.

**15-mashq.** *O'qing. Gapning uyushiq bo'laklarini toping, qanday bo'laklar uyushib kelganini ayting. Uyishiq bo'lakli gaplarni ko'chiring.*

1. Kecha juda sovuq bo'ldi, ammo qor yog'madi. 2. Yer silkinmasdan va to'xtamasdan bir tekis va ravon aylanib turadi. 3. Men shu payt Nargizaning yuziga qaradim, u qizarib ketdi, ammo hech narsa demadi. 4. Ularning jasorati xalqimiz xotirasidan bir umr o'chmaydi, xalqimiz ularni doimo g'urur va iftixor bilan eslaydilar.

**16-mashq.** «*Gulxan*» jurnalidan uyushiq bo'lakli 3 ta gap topib, yozing.

**17-mashq.** Gaplarni o'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang va ularni belgilab, ko'chiring.

1. Karvon qirq kecha-yu, qirq kunduz – jiring-jiring etib – cho'l-u biyobonlardan, tog'-u adirlardan yurib, nihoyat inson qadami yetmagan katta ormonga yetib kelibdi.
2. Fillarning ingrashidan, bo'kirishidan, baqirishidan butun or'mon larzaga kelibdi.
3. Chol o'g'illariga: «Har qaysingiz menga aqli va davlatli ekanligingizni ko'rsating», – debdi.
4. Kenja o'g'il: «Menda zumrad ko'zli uzuk ham yo'q, zarbof chopon ham yo'q, qimmatbaho kamar ham, lekin mehnatkash qo'lim bor, botir yuragim, aqli boshim bor», – debdi.

**18-mashq.** She'rni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol berib, ularni belgilang.

*Po'lat Mo'min*

### CHINIQQANLAR

- Kimlar ekan bu **chaqqonlar**,  
Barchamizga teng yoqqanlar?
- Bu chaqqonlar – chiniqqanlar,  
**Toblanganlar** – kuch **yiqqanlar**.

Kelgandayin **omadlari**,  
Zab kelishgan **qomatlari**.  
Epchil **oyoq** va **qo'llari**,  
Bo'rtib **chiqqan muskullari**.

## SO'Z TARKIBI. O'ZAK VA O'ZAKDOSH SO'ZLAR

1-mashq. *Ustunchalardagi o'zakdosh so'zlarni aniqlab, o'zak qismini namunadagidek belgilab, so'zlarni ko'chiring.*

N a m u n a: *tejamli.*

Tejamli	Mevasiz	Qadr
Tejamsiz	Mevazor	Qadrla
Tejamkor	Mevali	Qadrli
		Qadrsiz
		Qadrdon

2-mashq. *O'qing. O'zakdosh so'zlarni topib yonma-yon yozing. O'zaklarni belgilang.*

Mehr, beqadr, qadrdon, traktor, mehribon, qadr, mehrsiz, traktorchi, pilla, kashfiyot, mo'jisiz, qadrli, qadrsiz, kashfiyotchi, mo'jizali.

O'zaklari bir xil bo'lgan so'zlar ***o'zakdosh*** so'zlar deyiladi. O'zakdosh so'zlarning umumiy qismi ***o'zak*** deb ataladi.

Masalan: *tuzli, tuzsiz, tuzla, tuzdon.*

3-mashq. *So'zlarni o'qing. O'zakdosh so'zlarni aniqlang, ularni alohida yozib, belgilang.*


Esli, es, ekin, uzum, ekinzor, uzumzor, a'lo, a'lochi, o'yin, o'yinchilari.

*Yuqoridagi so'zlar yordamida gap tuzing va yozing.*

**4-mashq.** *Maqollarni o'qing. So'zlarning o'zaklarini belgilang.*

1. Elga qo'shilganning ko'ngli toq,  
Eldan ajralganning beti yoq.
2. Eskisiz yangi bo'lmas, yomonsiz yaxshi bo'lmas.
3. Aqlning o'lchovi – idrok.
4. Erinchoqlik boshga balo keltirar.

**5-mashq.** *Berilgan qo'shimchalar yordamida o'zakdosh so'zlar hosil qiling.*



## SO'Z YASOVCHI QO'SHIMCHALAR

**6-mashq.** *Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibi-dagi so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.*

## YOSH FUTBOLCHILAR

Bolalar bilan futbol o'ynadik. Rustam aka bizning murabbiy. Mohir **darvozabon**, Yo'ldosh **hujumchi**. Baxtiyor bizga boshliq – sardor. Qolgan o'yinchilar esa sinfdoshlarim. **Hisobchi** Anvar bo'ldi. Mohir sergak, **harakatchan** soqchi bo'lgani uchun bitta ham to'pni o'tkazib yubormadi.

O'zakka qo'shilib, yangi ma'noli so'z hosil qilgan qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi. Masalan: *sarala*, *yarador*, *g'allakor*, *yo'l dosh*. -chi, -la, -li, -siz, -chan, -zor, -iston, -kor, -dor, -bon kabi qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalardir. Masalan: *mehribon*, *mazmundor*, *Qoraqalpog'iston*, *jonsiz*, *kuchli*.

**7-mashq.** *Berilgan so'zlarga so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, so'z yasang.*

O'zbek, ish, o't, g'alla, paxta.

*2 ta gap tuzing va yozing.*

**8-mashq.** *Maqollarni o'qing. So'z yasovchi qo'shimchalarni toping va belgilang. Maqollar ma'nosini tushuntiring.*

1. Ishlab topganning oshi lazzatli.
2. Do'stsiz boshim – tuzsiz oshim.
3. Avval o'yla, keyin so'yla.
4. Dilozordan hamma bezor.
5. Yolg'onchi yolchimas, o'g'ri boyimas.
6. Bilimsiz kishiga ish yo'q, ishsiz kishiga osh yo'q.

O'zak va qo'shimchalar so'z tarkibini tashkil etadi.

**9-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar tarkibidagi so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.*

May oqshomida shahar atroflaridagi bog'larda yoqimli sayraydigan qushcha ovozini eshitish mumkin. Sayroqi qushlar orasida o'zining chiroyli, jarangdor ovozi bilan ajralib turgan bu qush – bulbuldir. Bulbullar to'qayzorlarda, tog'lardagi, o'rmonzorlardagi o'rmonlarda va qishloqlarda

sayraydi. Bulbullar zararkunanda hasharotlar va ularning lichinkalari bilan oziqlanib, juda katta foyda keltiradi.

Bulbullarni tabiatning ko'rki, zararkunanda hasharotlarni qirishda insonning **yordamchisi** sifatida muhofaza qilish lozim.

**10-mashq.** *Nuqtalar o'rniga -chi, -la, -siz, -li so'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Birdan dahshat... o'kirish hammayoqni larzaga keltirib yubordi. 2. Do'sti ko'p insonlar baxt... va saodat... bo'ladilar. 3. Qorong'i tunlari beg'ubor, yulduz... osmonda kuch...gina nurlanib turgan en... yo'lni ko'rishingiz mumkin. 4. Yunonistonda atletlar – yuguruv...lar, narsa irg'ituv...lar, mushtlashuv...lar musobaqasiga chiqishgan. 5. O'qituv... – sharaf... kasb. 6. Suv... hayot bo'lmas, mehnat... rohat bo'lmas.

**11-mashq.** *Aql, suv, maslahat, hosil so'zlariga so'z yasovchilardan mosini qo'yib, yangi so'z hosil qiling. O'zak va so'z yasovchi qo'shimchalarni tegishlich belgilang. Yasalgan so'zlariningiz ishtirokida uchta gap tuzing va yozing.*

**12-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlardagi so'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang. Maqollarning ma'nosini tushuntirib bering.*

1. **Yolg'onchiga qo'shilma,**  
Rost so'zingni yashirma.
2. Ishlab topganning oshi **lazzatli**.
3. **Yemsiz** ot dovon osholmaydi.
4. **Unumli** mehnat keltirar davlat.
5. **Bemehr** qarindoshdan,  
Mehribon do'st yaxshi.

**13-mashq.** *O'qing. So'z yasovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring. So'z yasovchi qo'shimchalarni belgilang.*

1. Yurak baquvvat bo'lsa, ish ham unum... (-li, -siz) bo'ladi.
2. Yozuv... (-chi, -li) lar bolalarga atab ajoyib asarlar yozadilar.
3. Yoz kunlari oftobda yurish foyda... (-siz, -li).
4. O'qituv... (-chi, -chan) bizga kitobdan foydalanishni o'rgatdi.
5. Eshik ochilib (be-, no-) ...tanish odam kirib keldi.
6. Kuch...(-li, -siz) bo'ron daraxtlarni tebratdi.

**14-mashq.** «*Sevimli o'qituvchim» mavzusida og'zaki hikoya tuzing. Ustozlar haqidagi she'r va maqollardan foydalanishingiz mumkin. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

**Reja:**

1. *Mening ustozlarim.*
2. *Men sevgan fan.*
3. *Mening sevimli o'qituvchim.*

## **SO'ZLARNI O'ZARO BOG'LOVCHI QO'SHIMCHALAR**

**15-mashq.** *Maqollarni o'qing.*

1. Mehnat qilgan dur keltirar.
2. Mehnatdan kelsa boylik,  
Tur mush bo'lar chiroylik.
3. Harakating erta bo'lsa,  
Kuzda erta o'rasan.  
Harakating halol bo'lsa,  
Huzurini ko'rasan.
4. Mehnatdan do'st ortar,  
G'iybatdan – dushman.

5. Tekinning minnati ko'p,  
Mehnatning ziynati ko'p.

*Maqollarni ko'chiring. -ning, -dan, -ni qo'shimchalarining tagiga chizing.*

Gapda so'zlarni bir-biriga bog'laydigan qo'shimchalar so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar deyiladi. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar yangi so'z yasamaydi.

Otlarga qo'shiladigan *-ning, -ni, -ga, -da, -dan* qo'shimchalari, fe'llarga qo'shilgan *-man, -ng, -ngiz, -k, -miz* kabi qo'shimchalar so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardir.

16-mashq. *O'qing. Matndan so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni topib, namunadagidek belgilang.*

## AZIZ TUPROQ

O'zbekiston diyori Amudaryo bilan Sirdaryo oralig'ida joylashgan. Unda ko'plab qadimiy shaharlar bor. Samarqand, Buxoro, Xiva shular jumlasidandir.

Paxta – O'zbekistonning milliy boyligi. Diyorumiz g'alla va neftga boy o'lkadir.

Kosmonavtlar O'zbekistonni fazodan turib suratga tushurishganda, yer osti boyliklarini ko'pligidan olimlar hayratga tushgan edilar. Tarixiy obidalarimiz esa jahon ko'zgusi hisoblanadi.

N a m u n a: *oralig'iða*.

17-mashq. *Nuqtalar o'rnila so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, she'rni ko'chiring.*

## NON AZIZ

Dasturxon... keldi non,  
Bismillo, dedim shu on.  
Non... olib qo'limga,  
Surdim uni ko'zim... .

Nonsiz hayot bo'lmaydi,  
Dasturxonlar to'lmaydi.  
Nonni azizligini,  
Dunyo... kim bilmaydi.

**18-mashq.** *Nuqtalar o'rniga sinf so'zini so'roqlarga mos holda o'zgartirib qo'yib, gaplarni ko'chirib yozing.*

## BIZNING SINF

Maktabimizda (nimalar?) bor. Biz (qayerga?) kirdik. (Qayerda?) stol, stul, javon, sinf taxtasi va partalar bor. (Nimaning?) derazalari katta-katta. Biz (nimani?) toza tutamiz.

*Har bir gapdagi sinf so'ziga qo'shilib kelgan so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni belgilang.*

**19-mashq.** *So'zlarni o'qing. Chizmaga o'zak, so'z yasovchi va so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni joylashtiring.*

Yo'ldosh, mevazorda, darvozabon, ishchiga, sinfdoshdan, shifokor, tuzdon, maftunkor, mazmunsiz, gulchida, traktorchining, odobli, hisobchini, so'zla.

So'z	O'zak	So'z yasovchi qo'shimcha	So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimcha
O'zbekistonning	O'zbek	-iston	-ning

**20-mashq.** *She'rnii o'qing. So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalarni aniqlang, ularni belgilang.*

*Po'lat Mo'min*

### **O'QUVCHI – SPORTCHIMIZ**

Bir sinfda anchamiz,  
Bordir zo'r maydonchamiz.  
Bo'sh kelmaymiz futbolda,  
Chiniqqanmiz bu yo'lda.

Velosiped haydashda,  
Eng olisga sakrashda,  
Chopishda g'izza-g'izza,  
Aslo bo'lmaymiz izza.

Ustoz bizga yoqqanlar,  
Ko'pdir chapdast, chaqqonlar.  
Barcha musobaqada  
Qolmaymiz hech orqada.

**21-mashq.** *So'zlarni o'qing. Ularni guruahlarga ajratib yozing.*

So'z yasovchi qo'shimchalar:

So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar:

Gulzor, o'yinga, musobaqada, sportni, mahalladosh, mashinaning, qayiqni, sinfdosh, daraxtzor, tutzor.

### **Savol va topshiriqlar**

1. *O'zak nima?*
2. *O'zakdosh so'zlarga misollar keltiring.*
3. *Qanday qo'shimchalar so'z yasovchi qo'shimchalar deyiladi?*
4. *Qanday qo'shimchalar so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar deyiladi?*

## SO'Z TURKUMLARI

Bizning nutqimiz gaplardan, gaplar so'zlardan tuziladi.

Har bir so'z ma'lum so'z turkumiga oid bo'ladi.

Ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish so'z turkumlaridir.

**22-mashq.** *O'qing. So'roqlar yordamida ot, sifat, son, fe'llarni aniqlab chizmaga joylashtiring, ularning imlosiga diqqat qiling.*

Ot	Sifat	Son	Fe'l
Kim? Kimlar?	Qanday?	Nechta? Necha?	Nima qildi?
Nima? Nimalar?	Qanaqa?	Nechanchi?	Nima qilyapti?
		Qancha?	Nima qiladi?

Bola, qizil, beshinchi, gul, yig'layapti, shifokor, oshpazlar, sariq, baland, chopdi, yigirma, paxta, uzun, yugurdi, o'tirdi, haydovchi, keldi, ruchka, kalta.

**23-mashq.** *Savollar yordamida so'z turkumlariga so'zlar toping va to'rtta gap tuzing.*

**24-mashq.** *She'rni o'qing, ko'chiring. So'roqlar yordamida so'z turkumlarini aniqlang, tagiga chizing.*

*M. Xudoyqulov*

## SOHIBQIRON BOBOMIZ

Sohibqiron bobomiz,  
Amir Temur bobomiz,  
Mard-u jasur bobomiz.  
Jang-u jadallar kezgan,  
Ulug' davlat-yurt tuzgan.

Abadiy o'chmas nomi,  
Dilimizda kalomi.  
Unutmaymiz hech qachon  
Sizni ulug' bobomiz!

**25-mashq.** *Maqollarni o'qing, mazmunini tushuntiring. So'roqlar yordamida ajratib ko'rsatilgan so'zlar qaysi so'z turkumiga kirishini aniqlang. Ko'chiring va ularning tagiga chizing.*

1. Qars ikki qo'lidan chiqar.
2. Yolg'iz otning changi chiqmas,  
Changi chiqsa ham dong'i chiqmas.
3. Yigit so'zidan, arslon izidan qaytmas.
4. Yigit kelsa ishga,  
Qari kelsa oshga.
5. Ko'z qo'rqoq, qo'l botir.

## OT – SO'Z TURKUMI

**26-mashq.** *O'qing. Kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni ko'chiring.*

*M. Qo'shoqov*

### BOYCHECHAK


U ochildi tong chog'ida  
Erka chechak, oy chechak.  
Boychechak deb atadilar,  
Gullar ichra kelinchak.

Qarab tursam, u gunafsha  
Loladan ham suluvroq.  
Bahor keldi, deb chorlovchi  
Go'yoki jajji qo'ng'iroq.

**27-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarning nima uchun bosh harf bilan yozilganini aniqlang.*

### **ABU ALI IBN SINO**

**Abu Ali ibn Sino** 980-yilning avgustida **Buxoro** yaqinidagi Afshona qishlog'ida tug'ilgan. Otasi **Abdulloh** mahalliy hukumat xizmatchisi edi. U besh yoshidan ta'lim oldi. **Ibn Sino** inson tanasidagi turli kasalliklarni kelib chiqishi va boshqa fanlarga doir 150 ta asar yozdi. «**Tib qonunlari**», «**Donishmandnoma**», «**Salamon va Ibsol**», «**Yusuf qissasi**» kabilar shular jumlasiga kiradi.



Ulug' olim va tabibni nodir asarlari biz uchun hamisha aziz va mo'tabardir!

**28-mashq.** *Kim?, kimlar?, nima?, nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni topib, ularni alifbo tartibida yozing.*

### **GIGIYENA**

Sizlar meva va sabzavotlarni yuvmasdan iste'mol qilish, dasturxonga qo'l yuvmasdan o'tirish mumkin emasligini bilasiz. Tirnoqlarni olib, sochlarni yuvib, tishlarni tozalab turish kerak.

Gigiyena qoidalari ichida «mumkin emas», «kerak» degan zerikarli qoidalari ko'p, lekin ular sog'liqni saqlashga yordam beradi.

Tanamiz, kiyimimiz ozodaligi va nafas olishimizdagi havoning tozaligi gigiyenadir.

Predmet nomini bildirib, *kim?*, *kimlar?*, *nima?*, *nimalar?* so'rog'iga javob bo'ladigan so'zlar *ot* deyiladi.

### *29-mashq. O'qing, otlarni aniqlang va belgilang.*

1. Orbita bo'ylab yer atrofini 108 minutda bir marta to'liq aylanib chiqib, Y.A. Gagarinning kosmik kemasi eson-omon yerga qo'ndi. 2. Men yozda Burchmullo tog'larida joylashgan Y.A. Gagarin oromgohida dam oldim. 3. Samarqand viloyatini Chelak tumanida katta yo'l yoqasida joylashgan ulug'vor me'moriy yodgorlikka ko'zingiz tushadi. 4. Gulnora uyidan gilos uchun chelak olib chiqdi.

### *30-mashq. O'qing. Matndan otlarni toping va yozing.*

## **AFROSIYOB**

Afrosiyob – Abulqosim Firdavsiyning mashhur «Shohnoma» asarining qahramoni. Afrosiyob podsho va sarkardaning nomidir.

Afrosiyob sug'diycha nom bo'lib, Siyob – ya'ni qorasuv bo'ylari ma'nosini anglatadi.

Mashhur Siyob anhorlaridan biri Samarqand shahrining shimolidan oqib o'tadi. Qadimda u o'z suvini Zarafshon daryosiga quygan.

**31-mashq.** *Topishmoqlarni o'qing, javobini toping.*

1. Asaldan shirin, zahardan achchiq. (lit)
2. Tunda ko'rib cho'g' deysan,  
Tongda ko'rib yo'q deysan. (znpdlny)
3. Yoniga kelsa bolasi.  
Ta'zim qilar onasi. (choynak, piyola)
4. Gapingni yetkazadi,  
Ishingni bitkazadi. (telefon)

**32-mashq.** *Kim?, kimlar?, nima?, nimalar? so'rog'iqa javob bo'lgan so'zlar ishtirokida 5 ta gap tuzing va yozing.*

**33-mashq.** «*Gulxan*» jurnalida berilgan qiziqarli matnni ko'chirib, otni belgilang.

**34-mashq.** *Quyidagi so'zlardan qatnashtirib gaplar tuzing. Otlarni belgilang.*

Murod, Gulasal, Nodir, Bekzod, borishdi, bog', bog'bon, daraxtlar, mevalar, yordam berdilar, xursand bo'ldilar, mehnatsevar, o'quvchilar.

**35-mashq.** *She'rni ifodali o'qing. Chiroyli yozish qoidasiga amal qilib ko'chiring. Kim? so'rog'iqa javob bo'lgan so'zlarning tagiga chizing.*

*E. Rahimov*

## **ONAJONGINAM**

- Kim deysizmi birinchi kuychim?
- Alla aytgan onajonginam.
- Kim deysizmi birinchi tilchim?
- Yana o'sha jonajonginam.

– «Ona!» – ilk bor men bilgan so'zim,  
– «Ona!» – ilk bor ko'rgan yulduzim.  
Oyog'imga turg'izgan o'zi.  
Ko'zlarimning nuri ham undan,  
Yuragimning qo'ri ham undan.  
Onam – umrim bo'yi yo'l doshim,  
Poylariga egikdir boshim!...

## ATOQLI VA TURDOSH OTLAR

**36-mashq.** *Berilgan so'zlarni (kishi nomlari va hayvonlarning shartli nomlarini) ikki guruhga ajrating va yozing.*

Anvar Usmonov, Qashqar, Umida, Oybodoq, Mosh, Olapar, Normurod, O'ktam, Zarofat, Davlat, Mirtemir, Yo'lbars, Malika Nortojiyeva.

**37-mashq.** *Berilgan so'zlarni turdosh va atoqli otlarga bo'lib ajrating.*

«G'uncha», Saodat Shodmonova, g'uncha, Kattaqo'rg'on, «Saodat», anor, Mirza, Anora, Mirzacho'l, katta qo'rg'on.

Yakka shaxs, narsa, joy, mahsulot, tashkilot va muassasa nomlarini ifodalab kelgan otlar **atoqli otlardir**. Atoqli otlar hamisha bosh harf bilan yoziladi.

Bir turdag'i narsa, voqe'a-hodisa, harakat-holat, o'rinn-joylarni ifodalab kelgan so'zlar turdosh otlardir.

**38-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarning nima uchun bosh harf bilan yozilganini izohlang.*

## BOBUR

**Zahiriddin Muhammad Bobur** Andijonda tug'ilgan. Uning otasi **Umar Shayx Mirzo** buyuk sarkarda **Amur Temurning** nabirasi bo'lgan. **Boburning** bolaligi asosan **Andijon** va uning atrofida o'tgan. U saroy muhitida o'qidi va tarbiya topdi. Yoshligidan ilm-fanga, she'riyatga qiziqa boshladи. Dovyurakligi va jasurligi uchun uni yoshligidan «**Bobur**», ya'ni «**Sher**» deb atashgan.



## OTLARDA BIRLIK VA KO'PLIK

**39-mashq.** *She'rni o'qing. Otlardagi -lar qo'shimchasi bor so'zlarga e'tibor berib, ularga izoh bering.*

*M. A'zam*

### ULUG'BEK

... Osmon to'la yulduzlar  
Sirli-sirli yiltirar  
Ko'zi pir-pir, pichirlar,  
Bilmam, bu ne bildirar.

Men sanadim necha bor,  
Lekin yanglishib ketdim.  
Sanog'iga yetolmay,  
Qovoqday shishib ketdim.

Ulug'bek bobomiz-chi,  
Barini tahlil qilgan.  
Har yulduzning uyini,  
Turar joyini bilgan.

Otlar birlikda va ko'plikda keladi.  
Masalan, *qush* (birlik); *qushlar* (ko'plik).

#### 40-mashq. *O'qing. Topishmoqlar javobini toping.*

1. Chevarlarda bo'lar doim,  
Ishlatishar opam, oyim.  
Ipni saflar, chopar «g'iz-g'iz»,  
Yo'llarida qoldirar iz. *(tiktu mashtinasi)*
2. Bir saf uning tishlari,  
Kesish, bo'lish ishlari. *(arras)*
3. Kattaligi uy kabi,  
G'izillashib ketadi.  
Minib tushar odamlar,  
Joy-joyiga eltadi. *(snqotuv)*

#### 41-mashq. *Birlik va ko'plikdagi otlarni toping.*

### **DUNYONING YETTINCHI MO'JIZASI**

Qadimgi dunyoning noyob inshootlari va haykaltaroshlik yodgorliklarini shunday deb atashadi. Afsuski, inson aql-zakovati va qo'li gul ustalar yaratgan bu ajoyib yodgorliklardan bizning davrimizgacha bittasigina yetib kelgan, xolos. U ham bo'lsa Misr ehromlari – piramidalaridir. Bular – fir'avnlarning g'oyat ulkan maqbaralari.

Ehromlarning eng yuksagi fir'avn Xufi piramidasidir.

## OTLARNING EGALIK QO'SHIMCHALARI BILAN TURLANISHI

**42-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik qo'shimchalarini aniqlang.*

Gul Vatanim  
Olamda sen  
Tengsiz yagona.  
**Istiqboling**  
**Istiqbolimiz**  
Mehribon ona.  
**Dildan madhing**  
Kuylab bizlar  
O'samiz shodon.  
Kelajagi porloq yurtim  
Hur O'zbekiston.

Otlarga qo'shiladigan **-im**, **-ing**, **-ng**, **-si**, **-i**, **-imiz**, **-miz**, **-ngiz**, **-ingiz**, **-lari** qo'shimchalari *egalik qo'shimchalaridir*.

Egalik qo'shimchalari o'zi qo'shilgan otning qaysi shaxsga (I shaxs, II shaxs, III shaxs) qarashli ekanini ko'rsatadi: **onam**, **onamiz** otidagi **-m**, **-miz** qo'shimchalari shu otning I shaxs (men, biz) ga qarashli ekanini bildiradi.

**43-mashq.** *Ish, hunar, xalq otlariga -im, -ing, -ng, -si, -i, -imiz, -miz, -ngiz, -ingiz, -lari qo'shimchalaridan mosini qo'yib, so'zlarni o'qing va yozing.*

**44-mashq.** *O'qing. Egalik qo'shimchalarini aniqlang, ularning tagiga chizing.*

## DIYORIM

To'lin oydek to'lib turgan diyorum,  
 Quyosh yanglig' kulib turgan diyorum.  
 Kelinchakdek yasangansan, chiroylilik,  
 Nuru mash'al bo'lib turgan diyorum.

Qavm-qarindosh, elga mehring poyandoz,  
 Ular mehri bilan ko'ngling sarafroz.  
 Yor-u do'stlar nafasidek bag'ringda,  
 Bahor yeli yelib turgan diyorum.

Mard-u maydonlaring senga parvona,  
 Ardoqlaysan boshin silab sen – ona.  
 Ta'rifingga ojiz shoir O'tkiring,  
 Elin shaydo qilib turgan diyorum.

**45-mashq.** *Jadvalda berilgan kitob, shaftoli otlarini o'qing. Ularga qo'shilgan qo'shimchalarga diqqat qiling.*

Shaxslar	Undoshdan so'ng	Unlidan so'ng
I shaxs	Kitobim Kitobimiz	Shaftolim Shaftolimiz
II shaxs	Kitobing Kitobingiz	Shaftoling Shaftolingiz
III shaxs	Kitobi Kitoblari	Shaftolisi Shaftolilari

**46-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlardagi egalik qo'shimchalarni aniqlang.*

1. Bug'doy noning bo'lmasin,  
 Bug'doy so'zing bo'lsin!

**2. Tilingni botir qilma,  
O'zingni botir qil.**

**3. Eli baquvvatning  
Beli baquvvat.**

**4. Do'st bilan safarga chiqsang,  
Uzog'ing yaqin bo'ladi.**

**47-mashq. *She'rni o'qing. Egalik qo'shimchalarini aniqlang.***

Xo'ppa semiz oshqovog'im,  
Qo'ysam to'lar naq tovog'im.

Do'stlar meni oshqovoq der,  
Osilmaydi qosh – qovog'im.

Hamma bola inoqmiz,  
Yaqin do'stmiz, o'rtoqmiz.

Sog' bo'ling deb o'ynatar.  
Quvnoq bo'l deb kuylatar.

**48-mashq. *She'rni o'qing. Ko'chiring. Egalik qo'shimchalarini topib tagiga chizing.***

*M. A'zam*

### **AMIR TEMUR BOBOMIZ**

Amir Temur bobomning  
Yuragi konday bo'lgan,  
Niyati ko'k yuziday,  
Shashti bo'ronday bo'lgan.

Maktablar, madrasalar,  
Qurdirgan baland-baland.  
Yo'llar, bog'lar, ko'priklar,  
Hamon turar tutib qad.

Bobomiz butun yurtni,  
Musht qilib birlashtirgan.  
Sochilib yotgan elni,  
Yonma-yon yerlashtirgan.

**49-mashq.** «*Onajonim – mehribonim*» mavzusida hikoya yozing. Quyidagi rejadan foydalaning.

**Reja:**

1. *Mening mehribon onajonim.*
2. *Men onamga yordamchiman.*
3. *Onamga sovg'a.*
4. *Onalar haqida mening sevimli she'rim.*

## QO'SHMA OTLAR

**50-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan otlarning yozilishiiga e'tibor bering.*

1. Sinfdoshim Avaz **Qo'shko'prik** mahallasida yashaydi.
2. **Yangiobod** mavzesi Yashnobod tumanida joylashgan.
3. Jarqo'rg'on ko'chasida yog'-moy kombinati joylashgan.
4. Biz **Qo'yliq** bozoriga bordik. 5. **Yangiqo'rg'on** hududida ziyoratgoh joylar bor.

Otlar birdan ortiq negizdan tuzilishi mumkin: **boychechak, kungaboqar.** Qo'shma otlar odatda ikki otdan (**otqulog**), sifat bilan otdan (**ko'ksulton, oqqush**), ot bilan fe'lidan (**otboqar**) yasalgan bo'ladi.

Biror belgiga yoki xususiyatga nisbat berib atalgan joy nomlari ko'pincha qo'shma ot orqali ifodalanadi: **Oqtepa, Beshariq.**

**51-mashq.** *Ko'chiring va qo'shma otlarning yozilishiga ahamiyat bering.*

1. O'rta Osiyoning janubi-sharqidagi eng baland tog'larida Qirg'iziston Respublikasi joylashgan. 2. Samarqand shahrining Chelak tumaniga borar ekansiz, yo'l yoqasida joylashgan ulug'ver me'moriy yodgorlikka ko'zingiz tushadi. 3. Cho'ponota choyxonasi juda chiroyli va katta.

**52-mashq.** *Berilgan so'zlardan foydalanib, gaplar tuzing va yozing.*

Yangiqo'rg'on, O'rtasaroy, Yangizamon, Qumariq, Oltinko'l.

**53-mashq.** *Ko'chiring. Qo'shma otlarning yozilishiga ahamiyat bering.*

1. Quyichirchiq tumani Toshkent viloyatining hududiga kiradi. 2. Mirobod mahallasida ko'p qavatli binolar ko'p. 3. Oqoltin – Sirdaryoning katta shaharlaridan biri. 4. Katta Farg'ona kanali qirq kunda qurilgan.

**54-mashq.** *Chiziqlar o'rniga mos so'zlarni qo'shib, qo'shma otlar yasang va yozing.*

Yunus\_\_\_\_\_, Yangi\_\_\_\_\_, Katta\_\_\_\_\_,  
Cho'pon\_\_\_\_\_, Qush\_\_\_\_\_, Qo'yliq\_\_\_\_\_.

**55-mashq.** *3 ta qo'shma ot topib, ulardan gap tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozing.*

## QISQARTMA OTLAR

**56-mashq.** *O'qing. Berilgan qisqartma otlarning yasalishiga e'tibor bering.*

1. Toshshahareltarmoq – Toshkent shahar elektr tarmoq.
2. Tosh DPU – Toshkent Davlat Pedagogika Universiteti.
3. IIBB – Ichki Ishlar Bosh Boshqarmasi.

1. Qisqartma otlar so'zlarning birinchi harfidan yasaladi. **BSO – Bolalar Sog'lomlashdirish oromgohi.** Bunday qisqartma otlarning har bir sozidan birinchi harfi bosh harf bilan yoziladi va ular o'z nomi bilan o'qiladi.

2. Birinchi so'zning bosh qismini, boshqa so'zlarning birinchi harfini olish bilan yasaladi. **Ross F. – Rossiya Federatsiyasi.**

3. Aralash yo'l bilan yasaladi. **Toshgazta'minot – Toshkent gaz ta'minoti.**

**57-mashq.** *Berilgan otlarni kengaytirib yozing va ko'chiring.*

Maxsustrans, TTB, Mirobod tumani IIB, AYOQSH.

**58-mashq.** *Quyidagi ajratib yozilgan so'zlarni qisqartirib yozing.*

1. Avtomobil Yoqilg'i quyish shoxobchasi.
2. Toshkent temir yo'llar kolleji.
3. O'zbekiston Respublikasi Toshkent unitar avtomobil korxonasi.
4. **Samarqand Davlat universiteti.**

**59-mashq.** *O'qing. Qisqartma otlarni kengaytirib yozing.*

1. Siz sport TV ko'rsatuvlarini ko'rasizmi?
2. Mansur akam «Maxsustrans» korxonasida ishlaydi.
3. O'zR.

madhiyasining so'zlarini O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov yozgan. 4. Kutubxonamizda «Sharq NMK» ishlab chiqargan kitoblar ko'p. 5. Men yozda Yu. A. Gagarin nomidagi BSODa dam oldim.

**60-mashq.** *Quyida ajratib yozilgan so'zlarni qisqartirib yozing.*

1. Munavvar opa O'zbekiston Milliy bankida ishlaydi.
2. O'zbekiston Respublikasi hududida hamma maktablar O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligiga qarashli.
3. O'zbekiston Qog'oz sanoati uyushmasi.
4. Davlat avtomobil nazorati.

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Qanday so'z turkumiga ot deyiladi? Atoqli va turdosh otlarga misol keltiring.*
2. *Otlarning birlik va ko'plikda qo'llanishini misollar bilan tushuntiring.*
3. *Egalik qo'shimchalariga qaysi qo'shimchalar kiradi?*
4. *Qo'shma va qisqartma otlarga misol keltiring.*

### **SIFAT – SO'Z TURKUMI**

**61-mashq.** *O'qing. Sifatlarni aniqlab, ularni o'zi bog'langan so'z bilan birqalikda ko'chiring.*

1. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar chiroylik.
2. Mehnatni sevmaydigan, dangasa, ishyoqmas odamlar aziz umrini bekor o'tkazadilar.
3. O'z halol mehnati bilan topilgan boylik ezbilik keltirib, farovon hayotga yetaklaydi.
4. Mehnatning katta-kichigi bo'lmaydi.
5. Halol mehnat insonga zavq-shavq, rohat baxsh etadi, insonni ulug'laydi.

Predmetning belgisini bildirib, *qanday?*, *qanaqa?* so'rog'iga javob bo'lgan so'zlar sifat deyiladi.

Sifatlar predmetning rang-tusini (*sariq*, *oq*), mazasini (*shirin*), shaklini (*dumaloq*), hajmini (*katta*), xususiyatini (*yaxshi*) bildiradi. Sifatlar otga bog'lanadi, gapda ikkinchi darajali bo'lak vazifasida keladi. Masalan: *Oppoq va dumaloq bulutlar tog'lar uzra suzib yuribdi*.

**62-mashq.** *O'qing, sifatlarni topib, savol bering va tagiga chizing.*

1. Aqli tiyrak qand yeidi,  
Aqli kalta pand yeidi.
2. Farzandlari sog'lom yurt qudratli bo'ladi.
3. Har bir inson: «Elim deb, yurtim deb yonib yashashi kerak».
4. Odobning yuqori bosqichi go'zal xulqdir.

**63-mashq.** *She'rni o'qing. Sifatlarni aniqlab, ularga savol bering. Sifatlarning tagiga chizing.*

*A. Po'latov*

### **QORA MUSHUK**

Qara mushuk,	Juda hushyor,
Qora mushuk.	Ovga tayyor:
G'ayrati zo'r	Sichqon ko'rsa,
«Balo» mushuk.	Quvar darhol.
Yungi yumshoq,	Ko'p mehribon
Tumshug'i oq.	Bu mushukjon.
Ko'p ozoda,	Mening bilan
O'tkir tirnoq.	O'ynar har on.

**64-mashq.** *Berilgan sifatlardan qatnashtirib, gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozib, sifatlarning tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

Ozoda, yashil, past, chiroyli, oq, yoqimli, shirin, ko'mko'k.

**65-mashq.** *O'qing, sifatlarni toping, ularga savol bering va tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

### BILASIZMI?

Neonlar akvariumda saqlanadigan baliqlarning eng chiroylisidir. Janubiy Amerikadan keltirilgan bu kichkina baliqning tanasida uzunasiga ketgan ikkita moviy rang yo'li bor. Tanasining yarmidan to dumigacha qizil, qorni oppoq bo'ladi. Bu baliq dunyodagi barcha katta akvariumlarda tarqalgan.

**66-mashq.** *She'rni o'qing. Chiziqlar o'rniga mos so'zlarni qo'yib, she'rni ko'chiring.*

A. Po'latov

### KICHIK CHEVAR

Mening \_\_\_\_\_ singlim bor,  
Nomi uning Sanobar.  
O'qishda u \_\_\_\_\_,  
Ishda \_\_\_\_\_ va chevar.

Mehrin qo'yib Sanobar,  
\_\_\_\_\_ matoga tikdi g'oz,  
Go'yo dengizda suzib,  
Osmonda qilar parvoz.

*Qo'yish uchun so'zlar: kichik, chaqqon, a'lochi, ko'k.*

**67-mashq.** *Berilgan sifatlarga qarama-qarshi ma'noli sifatlar tanlab, namunadagidek yozing.*

N a m u n a: *Shirin – achchiq.*

Boy, chiroyli, past, katta, oq, mard, yopiq, yaxshi, yosh.

**68-mashq.** *O'qing, ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. Qoidalarga diqqat qiling va yodda tuting.*

Bolalar, yo'lida yurganingizda quyidagilarga amal qiling:

1. Yo'llarni piyodalar uchun mo'ljallangan svetoforning **yashil** chirog'i yonganda kesib o'ting.
2. Yo'lida atrofdagilar sizni **odobli** bola ekanligingizni sezsinlar.
3. Yo'lning qatnov qismini faqat **maxsus** belgilangan joylardan kesib o'ting.

**69-mashq.** *She'rni o'qing. Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol berib, ularni belgilang.*

*A. Po'latov*

### **ASSALOM!**

Onajonim – assalom!

Jonajonim – assalom!

**Qand-u asal** so'zingiz,

Oydan go'zal yuzingiz,

Mehr to'la ko'zingiz,

Onajonim o'zingiz,

Jonajonim o'zingiz.

El uchun qilib xizmat,

Topib baxtu saodat,

Orttirgan katta shuhrat,

Sharaf-shonim o'zingiz,

Jonajonim o'zingiz.

Do'stingiz ko'p onajon,  
Nomingiz elda doston,  
Bo'lingiz doim **omon**,  
Mehribonim o'zingiz,  
Jonajonim o'zingiz.

**70-mashq.** *She'rni o'qing. Sifatlarni aniqlab, ularni tegishlichcha belgilang.*

*P. Mo'min*

### **BIZ UCH XIL CHIROQMIZ**

- Bizlar uchta qizaloq,  
Uchchalamiz xushchaqchaq.  
Chorrahada, ko'chada,  
Xizmatdamiz uch o'rtoq.
- O'zim qizil chiroqman,  
Ko'rinaman yiroqdan.  
Rangim gulga o'xshaydi,  
Yonsam hamma to'xtaydi.
- Men-chi, sariq chiroqman,  
Rosayam yarqiroqman.  
Men ko'rinsam ko'zingga,  
Ehtiyot bo'l o'zingga.
- Mana, men yam-yashilman,  
Barchangizga ahilman.  
Charaqlasa yashil nur,  
Deyilgani, qani yur!
- Navbat bilan yonamiz,  
Yonamiz, quvonamiz.

**71-mashq.** *Hikmatlarni o'qing. Mazmuniga e'tibor bering. Sifatlarni topib, savol bering va belgilang.*

1. Idrokli, so'ziga vafodor, o'zidan kichik bilan xushmuo-mala odamgina dono odamdir.
2. Rost so'zlagan do'stdir.
3. Yaxshiga yondashgan ayni muddao – bu fazilatga yo'l ochadi.

## SIFAT DARAJALARI

Predmetdagi belgining ortiq-kamligi jihatdan farqlanishi **sifat darajalari** deyiladi. Masalan: *baland bino, balandroq bino, juda baland bino*.

Sifat darajalari uch xil bo'ladi:

1. Oddiy daraja: *shirin qovun*.
2. Qiyosiy daraja: *shirinroq qovun*.
3. Orttirma daraja: *juda shirin qovun*.

**72-mashq.** *Ko'chiring. Ajratib ko'rsatilgan sifatlarning ma'nosiga e'tibor bering.*

X. Sharipov

## MENING VATANIM

Dunyoda eng nurli yurt – mening Vatanim,  
Mevasi ming turli yurt – mening Vatanim.  
Dunyoda eng shirin so'z – mening Vatanim,  
Bolalari mehmondo'st – mening Vatanim.  
Dunyoda eng yashil bog' – mening Vatanim,  
Tillodan ham aslroq – mening Vatanim.  
Dunyoda eng gul diyor – mening Vatanim,  
Baxt ulashib baxtiyor – mening Vatanim.

**73-mashq.** *Maqollarni o'qing. Sifatlarni aniqlang, sifatlarning tagiga chizing.*

1. To'g'ri bo'lsang, o'sib borib gul bo'lasan,  
Egri bo'lsang, o'sib borib kul bo'lasan.
2. Yomonlik qilgan kishiga yaxshilik qil.
3. Kimning xulqi yomon bo'lsa o'zi azoblanadi.
4. Do'st beg'araz bo'lishi kerak.

**74-mashq.** *So'zlarni o'qing. Sifat darajalarini ajratib yozing.*

Oddiy daraja:

Qiyosiy daraja:

Orttirma daraja:

Qizil, kattaroq, eng kichik, dumaloq, eng baland, uzoqroq, yaqinroq, hazilkashroq, eng kulgili, tabiiy, xushbichim, eng olis, janubiy, balandroq.

### ODDIY DARAJA

|| Oddiy daraja predmetning belgisini bildiradi. ||

Masalan: *oq, qattiq, a'lochi, kalta.*

**75-mashq.** *O'qing. Berilgan otlarning bor belgilarini yozing.*

Koptok qanday? – qizil, dumaloq.

Qor qanday? –

Uy qanday? –

Bola qanday? –

O'quvchi qanday? –

**76-mashq.** *O'qing. Berilgan sifatlar ishtirokida gaplar tuzing.*

Chiroyli, odobli, ozod, tez, suyuq, mazali, serhosil, xushbo'y.

**77-mashq.** *O'qing. Matndagi sifatlarni topib, to'lqinli chizig chizing.*

1. Xumson juda chiroyli qishloq. 2. Bir tomoni baland tog', bir tomonida Ugom daryosi bor. 3. Atrof oppoq qor bilan qoplangan. 4. Javdar – sovuqqa chidamli donli ekin, u serhosil bo'ladi. 5. Ta'til kunlari buvimlarnikida har kuni issiq javdar nonidan yeb, mazza qilib dam oldik.

**78-mashq.** *Berilgan sifatlarga ma'nodosh sifatlarni topib yozing.*

N a m u n a: *Katta – ulkan.*

Go'zal, dangasa, hushyor, urushqoq, odobli, ozod, toza, orasta.

## QIYOSIY DARAJA

Qiyosiy daraja bir predmet belgisining boshqa predmet belgisiga nisbatan ortiq ekanligini ifodalaydi, u solishtirish, taqqoslash yo'li bilan yasaladi. Qiyosiy daraja oddiy darajadagi sifatga *-roq* qo'shimchasi qo'shilishi bilan yasaladi. Masalan: *yaxshi – yaxshiroq*, *baland – balandroq*.

**79-mashq.** *Ko'chiring. Qiyosiy darajadagi sifatlarni tagiga chizing.*

1. Tulki o'rmonni aylanib yurib, yoqimliroq hidni sezibdi. 2. Karnaychilar karnaylarini kuchliroq puflabdilar. 3. Kuzda qushlar issiqroq o'lkalarga uchib ketadilar. 4. Qishda kunlar sovuqroq bo'ladi.

**80-mashq.** *O'qing. Berilgan sifatlarga mos otlarni topib, birga ko'chiring.*

Achchiqroq, mayinroq, qalinroq, chiroyliroq, nordonroq.

## **ORTTIRMA DARAJA**

**Orttirma daraja** predmetdagi biror belgining boshqa predmetdagi shu belgidan o'ta ortiqligini, ko'pligini ko'rsatadi. Orttirma daraja oddiy darajadagi sifatlardan oldin *eng, juda, g'oyat(da), nihoyat(da)* so'zlarini keltirish bilan yasaladi. Masalan: *juda ajoyib, eng go'zal.*

**81-mashq.** *She'rni o'qing. Orttirma darajali sifatlarning tagiga chizing.*

*R. Tolipov*

### **NIMA SHIRIN...**

– Dunyoda shirin narsa nima?  
Ayt-chi, singlim Karima.  
Biroz o'ylab turib u,  
Dedi: – eng shirin uyqu.  
Odilga kelgach navbat,  
Dedi: – shirin novvot,  
Nodir der: – shirin asal.

Yaqinlashmading loaqlal,  
Ukam shuni yaxshi bil,  
Dunyoda – eng shirin til.

**82-mashq.** *O'qing. Berilgan sifatlarning qarama-qarshi ma'nolarini topib yozing.*

Qora, toza, xunuk, qattiq, past, ingichka, qimmat, qisqa, bemaza.

**83-mashq.** *She'rnii o'qing. Ko'chiring. Sifat darajalarini aniqlang, ularni belgilang.*

*G'. Abdullayev*

### KIM KAMTAR?

Uch o'rtoqdan so'radim:

- Qay biringiz eng kamtar?
- Menman, menman, – der Hakim,
- Ho, kamtar men, – der Anvar.

Salim-chi, o'ychan, hayron:

- Kamtar o'zin maqtarmi?

Shu savol qildi ayon,

Qaysi o'rtoq kamtarin!

### YURAK

Postida mahkam,

Muskullarga der:

Tinmaydi duk-duk.

«Ishlab to'king ter».

Mushtdek bo'lsa ham

G'ayratda yonsam

Tanda eng suyuk.

Umrim uzoq, der.

**84-mashq.** *O'qing. Sifatlar ishtirokida gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozib oling.*

Achchiqroq, pastroq, shirin, ahil, eng sevimli, oq, eski, mitti, eng katta.

**85-mashq.** *Berilgan sifatlarga -roq qo'shimchasini qo'shib o'qing, ko'chiring.*

Katta, achchiq, sariq, uzun, kalta, ko'p, oz, ho'l, shirin, sho'r.

**86-mashq.** *Berilgan sifatlarga -roq qo'shimchasini qo'shib ko'ring.* Bu qo'shimcha qaysi sifatlarga qo'shila olishi va qo'shila olmasligiga ko'ra ikki ustunga yozing.

Oson, qishki, tungi, ipakli, quruq, bilimli, mo'ynali, serurug', kuchsiz, past, yukli, og'ir.

**87-mashq.** *O'qing, sifatlarni toping.* *Mashqni ko'chiring.*

1. Akam olib kelgan qovun kechagi qovundan shirinroq chiqdi. 2. Bu bino kattaroq ekan. 3. Yarim finalda bu kurashchi kuchliroq bo'ldi. 4. Hasanning vazni Husannikiga qaraganda og'irroq.

**88-mashq.** *Berilgan sifatlar yordamida gaplar tuzing.* *Mashqni ko'chiring.*

Ko'proq, tuzliroq, achchiqroq, kuchliroq.

**89-mashq.** *-roq qo'shimchasi bilan birika oladigan va -roq qo'shimchasi bilan birika olmaydigan sifatlarga misol toping.* *Sifatlar ishtirokida 5–6 ta gap yozing.*

**90-mashq.** *O'qing, sifatlarni toping.* *Mashqni ko'chiring.*

1. Mandarin limondan shirinroq.
2. Kumush misdan og'irroq bo'ladi.
3. Yomon otda yurguncha,  
Yayov yurgan yaxshiroq.
4. Bu dalada bug'doy hosili ko'proq ekan.
5. Sobirning tergan paxtasi Dilmurod tergan paxtasidan kamroq chiqdi.

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Qanday so'zlarga sifat deyiladi?*
2. *Sifat gapda qanday vazifani bajaradi?*
3. *Sifat darajalariga misol keltiring.*

## SON – SO'Z TURKUMI. MIQDOR VA TARTIB SONLAR

Predmetning sanog'ini yoki tartibini bildiradigan so'zlar **son** deyiladi.

Predmetning sanog'ini bildirgan sonlar *qancha?*, *nechta?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: *ikkita odam*.

Predmetning tartibini bildiradigan sonlar *nechanchi?* so'rog'iga javob bo'ladi. Masalan: *sakkizinchи sinf*.

Son otga bog'lanib, gapda **ikkinchi darajali bo'lak** vazifasida keladi. Masalan: *biz sakkizinchи* sinfda o'qiymiz.

Sonlar raqam bilan yoziladi

1. Arab raqamlari: **0, 1, 2, 3, 4, 5...**

2. Rim raqamlari: **I chorak, II chorak.**

Badiiy asarlarda sonlar, odatda harflar bilan yoziladi:  
Yana **to'rt-besh** kundan keyin o'qish boshlanadi.

**91-mashq.** *Maqollarni o'qing. Sonlarni topib, tagiga to'lqinli chiziq chizing.*

1. Bir kun burun sochsang,  
Hafta burun o'rasan.
2. Birni kessang, o'nni ek.
3. Sanamay sakkiz dema.
4. Qars ikki qo'ldan chiqar.
5. Yetti o'lchab, bir kes.

**92-mashq.** *She'rlarni o'qing. Ko'chiring. Sonlarni aniqlab, ularni belgilang.*

## GUGURT

- Qanday yashar  
Bir uyda inoq.  
Yetmish beshta  
Gugurt donasi.
- Bu savoling  
O'rinli biroq,  
Urishgani  
Tor-da, xonasi.

**93-mashq.** *So'zlarni o'qing. Ular qaysi so'z turkumiga kirishini ayting va yozing.*

Shifokor, chiroyli, achchiq, o'qituvchi, oltmish besh, go'dak, bir yuz o'n, nordon, issiq, oshpaz, o'n bir, sakson.

Ot – so'z turkumi:

Sifat – so'z turkumi:

Son – so'z turkumi:

**94-mashq.** *O'qing. She'rni ko'chirib yozing, sonlarni tagiga chizing.*

P. Mo'min

## SINFIMIZ QO'SHIG'I

Bizlar o'ttiz bola  
Ahil – o'rtoqmiz,  
Sinfimiz qo'ynida.  
Shodon – quvnoqmiz.

Darsimiz tinglaymiz.  
Bir odam bo'lib,  
Qo'shiqlar aytarmiz,  
Bir olam bo'lib.

Sinfimiz chamanday,  
Doimo bahor.  
Uning chechaklari,  
«To'rt»u «besh» baho.

Sinfimiz muqaddas,  
Bilim uyimiz.  
Fan, hunar cho'qqisi,  
Orzu – uyimiz!

## MIQDOR SONNING TURLARI VA GRAMMATIK BELGILARI

Sonlar ma'no va grammatik jihatdan ikki xil bo'ladi:

### 1. Miqdor son. 2. Tartib son.

*Miqdor son turlari:* 1) Sanoq son. 2) Dona son.  
3) Chama son. 4) Jamlovchi son. 5) Taqsim son. 6) Kasr son.

### SANOQ SON VA DONA SON

**Sanoq son** bir turdag'i predmetlarning umumiy sonini, miqdorini bildiradi. Miqdor sonlar *kunlar, oy, yil, soat, minut, litr, so'm* kabi so'zlar bilan birga ishlataladi. Oradan *to'rt yil* o'tdi.

**Dona son** predmetning donalab sanaladigan umumiy sonini bildiradi. Dona son miqdor songa *-ta* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil qilinadi. *Bitta* daftar, *o'nta* koptok.

**95-mashq.** *O'qing. Avval sanoq sonli gaplarni, keyin dona sonli gaplarni ko'chiring.*

1. Odatda itlar uzog'i bilan o'n besh yil umr ko'radilar.
2. «Dosti» laqabli mushuk naq 420 ta mushukchaning onasi bo'lgan.
3. Bo'ri och bo'lsa, bir yeganda 10–11 kg ovqatni yeb qo'yadi.
4. Fil bir kunda 360 kg ovqat, 90 l suvni ko'rdim demaydi.
5. Olamda to'rtta narsa yo'q. (Topishmoq: osmonning ustuni, ko'rpaning yengi, oshpichoqning qini, hovuzning qopqog'i).

**96-mashq.** *Tez aytishni o'qing va yodlab oling. Daftaringizga yoddan yozing, miqdor son va dona sonning tagiga chizing.*

Ikki ukki – aka-uka ukki.

Yetti to'ti, mitti to'ti,  
Yetmishtaga yetdi to'ti.

**97-mashq.** *O'qing. Dona sonli gaplarni ko'chiring. Yozilishiga diqqat qiling.*

1. Sinfimizda o'n oltita o'quvchi o'qiysi. 2. Bir yil tut ekkан kishi yuz yil gavhar teradi. 3. Insonning yuragi yigirma to'rt soat ichida yuz mingtaga yaqin uradi. 4. Beshta qiz chir-chir aylanib koptok o'ynar edi. 5. Odil bilan Obid bir sinfda o'qishadi.

**98-mashq.** *2 ta miqdor songa, 2 ta dona songa gap topib, daftaringizga yozing. Quyidagi so'zlardan foydalanishingiz mumkin.*

Olti kun, o'n nafar, uch kecha-kunduz, bitta daraxt, sakkizta kitob.

**99-mashq.** *O'qing. Sanoq sonlarni ko'chirib yozing.*

### BILASIZMI?

Sariq yumronqoziq yilning to'qqiz oyida suv ichmay va ovqat yemay yashay oladi.

Toshbaqa bir yilda sakkiz oy uxlaydi.

Baroq barmoqli qo'shoyoq qumloq yerda o'n besh minutda uzunligi bir yarim metr keladigan uya qura olishi mumkin.

**100-mashq.** *O'qing. Ko'chiring. Sonlarni so'z bilan yozing va ularni belgilang.*

## BILASIZMI?

Yer yuzida tarqalgan mushuklarning 300 turidan ba'zilarining og'irligi 3 kilogrammga arang yetsa, ba'zilari 7 qadoq tosh bosarkan.

Keniya o'rmonzorlarida yashaydigan 6 metrli jirafalarning og'irligi naq 1 tonna-yu 700 gramm keladi.

### CHAMA SON, JAMLOVCHI SON, TAQSIM SON, KASR SON

**Chama son** predmetlarning taxminiy sonini bildiradi. Chama son quyidagicha hosil bo'ladi:

Miqdor songa:

1. *-tacha* qo'shimchasini qo'shish bilan: ***o'ntacha mashina***.

2. *-lar, -larcha* qo'shimchalarini qo'shish bilan: ***yuzlarcha bola***.

3. *-lab* qo'shimchasini qo'shish bilan: ***minglab odamlar***.

**Jamlovchi son** predmetning donalab sanalishidan hosil bo'lgan miqdorini bildiradi. Jamlovchi son quyidagicha hosil bo'ladi:

1. *-ov* qo'shimchasini qo'shish bilan: ***Uchovi maktabga borishdi***.

2. *-ala* qo'shimchasini qo'shish bilan: ***Ikkala o'quvchi***.

**Taqsim son** predmetning taqsimlanish miqdorini anglatadi. Taqsim sonlar miqdor songa *-tadan* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi. ***Bittadan***.

**Kasr son** –  $\frac{5}{10}; \frac{5}{15}; \frac{5}{20}; \frac{5}{25}; \frac{5}{30}$ .

**101-mashq.** *Ko'chiring. Ajratib yozilgan sonlarni aniqlang, qanday son turlariga kirishini ayting va tagiga chizing.*

1. Bilimni buyuk bil, o'quvni ulug',  
Shu ikkov ulug'lar kishini to'liq.
2. Oltovlon ola bo'lsa,  
Og'zidagin oldirar.  
To'rtovlon tugal bo'lsa,  
Unmaganin undirar.

**102-mashq.** *O'qing. Sonlarning tagiga chizing, yozilishiga diqqat qiling.*

1. Binoning yoniga beshtacha mashina kelib to'xtadi.
2. Akam kelganlarida soat o'nlar edi.
3. Dilorom gullarni bittalab uzdi va guldaста yasadi.
4. Har yili minglab abituriyentlar oliy o'quv yurtlariga hujjat topshiradilar.
5. Sarvara va Gulnora ikkalasi dars tayyorladilar.
6. Do'kondan ular har biri beshtadan daftar, ikkitadan ruchka sotib oldilar.

**103-mashq.** *O'qing. Chama son, jamlovchi son, taqsim sonlarni ajratib yozing.*

O'ntacha o'quvchi, yuzlab sayohatchilar, oltitadan olma, beshala bola, uchtacha mashina, ikkitadan qator, uchala haydovchi.

**104-mashq.** *O'qing. E'londagi qoldirib ketilgan sana va soatlarni yozib, e'lonni yozing. Tartib sonlarni yozilishiga diqqat qiling.*

### **E'LON!**

\_\_\_\_\_ yil, soat \_\_\_\_\_ da maktab «Ma'naviyat va ma'rifat xonasi»da ota-onalar majlisi bo'ladi.

Kun tartibi:

1. «Chekish va uning zararli oqibatlari». Shifokor ma'ruzasi.

2. «O'quvchining kun tartibi». Boshlang'ich sinf o'qituvchi ma'ruzasi.

Majlis soat \_\_\_\_\_ da boshlanadi.

Maktab ma'muriyati.

**105-mashq. Quyidagi rejalardan foydalanib «Men sevgan kasb» mavzusida bayon yozing.**

**Reja:**

1. *Menga shifokor kasbi yoqadi.*
2. *Shifokor bo'lishni yoshligimdan orzu qilaman.*
3. *Orzumga yetishish uchun nimalar qilishim kerak?*
4. *Kasb haqida maqollar.*

**106-mashq. Oddiy kasrni o'qing va so'z bilan yozing.**

$$\frac{2}{4}; \quad \frac{2}{6}; \quad \frac{2}{8}; \quad \frac{2}{10}; \quad \frac{2}{12}.$$

## **TARTIB SON**

Tartib son predmetning sanoqdagi tartibini bildiradi, *-nchi, -inchi* qo'shimchasi bilan qo'llanadi. Predmetning tartibini bildirgan sonlar raqam bilan yozilganda *-nchi, -inchi* qo'shimchasi o'rниga chiziqcha qo'yiladi. Masalan: **12-maktab, 344-bog'cha, 2015-yil.**

**107-mashq. O'qing. Tartib sonlarni so'roq berib aniqlang va tagiga chizing.**

## **ZULFIYANING HAYOTI VA IJODI**

O'zbek xalqining atoqli shoirasi va jamoat arbobi Zulfiya Isroilova 1915-yil 1-martda Toshkent shahrida  
50

tug'ilgan. Zulfiya 1928-yilda boshlang'ich maktabni bitirib, Toshkentdagi xotin-qizlar pedagogika bilim yurtiga kirib o'qiy boshladi. 1931-yilda Zulfiyaning «Men ishchi qizi» nomli she'ri chop etildi. 1932-yili uning «Hayot varaqlari» ilk she'riy to'plami chiqarildi.

**108-mashq.** *Savollarga yozma javob bering. Tartib sonlarni arab raqamlari bilan yozing.*

1. Siz nechanchi yilda tug'ilgansiz? 2. Nечanchи yili, qaysi maktabga o'qishga borgansiz? 3. Nечanchи sinfda o'qiyapsiz? 4. Uy manzilingizni yozing.

## **QO'SHMA VA JUFT SONLAR**

Birdan ortiq so'zlardan tuzilgan sonlar qo'shma sonlar deyiladi. Masalan: *o'n besh, qirq bir, to'rt yuz elliq*. Qo'shma sonlar odatda, raqamlar bilan yoziladi. Masalan: *Komil Yormatov nomli 12-maktab*.

Juft son sonlar qatorida ketma-ket keladigan ikki sonlarning teng bog'lanish yo'li bilan hosil bo'ladi. Bunda kichik son oldin keladi. Juft sonlar hamma vaqt chiziqcha bilan yoziladi. Masalan: *besh-olti*.

**109-mashq.** *Sanalarni o'qing. Qo'shma va sodda sonlarni raqamlar bilan yozing. Sanalarni yodda tuting.*

## **ENG ULUG' KUNLAR**

Birinchi sentabr – Mustaqillik kuni.

Ikkinchi sentabr – Bilimlar kuni.

Birinchi oktabr – O'qituvchilar va murabbiylar kuni.

Sakkizinchi dekabr – O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni.

Birinchi yanvar – Yangi yil.

O'n to'rtinchi yanvar – Vatan himoyachilari kuni.  
Sakkizinchi mart – Onalar bayrami.  
Yigirma birinchi mart – Navro'z bayrami.  
To'qqizinchi may – Xotira va Qadrlash kuni.  
Birinchi iyun – Bolalarni himoya qilish kuni.  
Ramazon va qurban hayitlari.

**110-mashq.** *O'qing. Avval sodda sonlarni, keyin qo'shma sonlarni yozing.*

Besh, yigirma besh, bir yuz bir, ikki, olti, o'n, o'n bir,  
o'n sakkiz, to'qqiz, yigirma, o'ttiz, bir yuz besh, bir, uch.

**111-mashq.** *O'qing. Sonlarni tagiga chizing.*

1. Kishi ikki narsa bilan qarimaydi:  
    Biri – ezgu xulqi, biri ezgu so'z.
2. Yeridan ayrilgan yetti yil yig'lar,  
    Elidan ayrilgan o'lguncha yig'lar.

**112-mashq.** *O'qing. Sonlarni aniqlang, qaysi turga kirishini ayting.*

### **BILASIZMI?**

Mikroskopni 1846-yili olmoniyalik olim Seys yaratgan.

Isitma tushiradigan dori dastlab 1888-yilda ishlab chiqarilgan. Uni dorishunos olim D. Karl kashf qilgan.

Po'stlog'i bilan qaynatilgan kartoshkada tarkibidagi vitaminlarning 75 foizi saqlanadi.

**113-mashq.** *Savollarni o'qing, ularga javob bering va daftaringizga yozing.*

1. Siz qachon tug'ilgansiz? (yil, oy, sana)
2. Onangiz va otangiz necha yoshdalar?

3. Opa, aka, uka, singlingizning tug'ilgan yilini, oyi, sanasini yozing.
4. Yaqin do'stlaringizning tug'ilgan sanasini yozing.

**114-mashq.** «Qishda» mavzusida hikoya yozing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing. Yozgan hikoyangizda juft son va qo'shma sonlar ishtirok etsin, sonlarning tagiga chizing.

**Reja:**

1. Qish oylari.
2. Qishda bo'ladigan bayramlar.
3. Qishda tabiatning o'zgarishi.

**115-mashq.** O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. Ularning qaysi son turiga kirishini ayting.

1. Yig'ilishda qirq-ellik odam qatnashdi. 2. Har bir o'quvchi kutubxonadan bir-ikkitadan kitob oldi. 3. Bolalar maktab bog'iga ekish uchun uch-to'rttadan gul va daraxt ko'chatlaridan olib keldilar. 4. Besh-olti kundan beri havo o'zgarib turibdi. 5. Oradan yetti-sakkiz kun o'tdi.

**116-mashq.** Juft sonlarni qatnashtirib 4 ta gap yozing. Juft sonlarning tagiga chizing.

**117-mashq.** O'qing. Quyidagi qo'shma sonlarni raqam bilan yozing.

Ikki ming besh yuz,  
Oltmisht oltinchi,  
Ikki ming oltinchi,  
O'n birinchi,  
Bir ming to'qqiz yuz to'qson to'qqiz,  
Besh yuz ellikta,  
Yigirma beshta,  
Sakson sakkizta.

**118-mashq.** *O'qing. She'rlardagi sonlarni aniqlang, ular qaysi son turiga kirishini aytинг.*

- |   |  |
|---|--|
| <p>1. Akam bilan ikkimiz,<br/>Rosa boks tushdik biz.<br/>Menga boks qo'lqopi,<br/>Bo'ldi junli paypog'im.</p> | <p>2. Dada sizni yoshlikda,<br/>Urishganmi otangiz?<br/>Bir yo'lsasi bir kunda<br/>Uchta «ikki olsangiz»?!</p> |
| <p>3. Buvijon, ho buvijon,<br/>Aytayinmi bitta sir?<br/>Qarang, Nargiz opamning<br/>Tirnoqlari qizil kir.</p> |  |

**119-mashq.** *So'zlarni o'qing. Sonlarni turlariga ko'ra ajrating va jadvalga to'g'ri joylashtiring.*

Olti kun, bitta daftar, o'ttiz minut, beshtacha, yuzlab, o'n bir oy, o'nta qo'y, saksontacha, beshinchi sinf, birinchi qavat.

Sanoq son	Dona son	Tartib son	Chama son

**120-mashq.** *O'qing. Test savollariga to'g'ri javoblarni bering.*

1. Har birimiz o'ntadan daftar sotib oldik.
  - A) Taqsim son.
  - B) Miqdor son.
  - C) Chama son.
2. Dadam kelganlarida soat oltilar edi.
  - A) Taqsim son.
  - B) Miqdor son.
  - C) Chama son.

3. Miqdor sonni belgilang.
  - A) Guli bitta non olib keldi.
  - B) Sardor 7-sinfda o'qiydi.
  - C) Singlim 2004-yil 10-yanvarda tug'ildi.
4. Qo'shma sonni belgilang.
  - A) o'n, to'qqiz, sakkiz.
  - B) yigirma besh, oltmis.
  - C) o'n ikki, ellik besh.
5. Juft sonlarni belgilang.
  - A) 1-sinf, 18-noyabr.
  - B) bir-ikki, ellik uch.
  - C) yetti-sakkiz, o'n-o'n bir.

### Savol va topshiriqlar

1. *Qanday so'z turkumiga son deyiladi?*
2. *Sonning turlarini ayting.*
3. *Son turlarining har biriga 2 tadan misol keltiring.*
4. *Qo'shma sonlarga misol keltiring.*
5. *Juft sonli gap ayting.*

### OLMOSH – SO'Z TURKUMI

*121-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qiling, ularga so'roq bering.*

1. Sherzodning tug'ilgan kunida **unga** amakisi chiroyli o'yinchoq mashina sovg'a qildi.
2. Ular bu yerda o'zlarini qiziqqan kasbni o'rganibgina qolmasdan, mahsulot chiqarishga yordam bermoqdalar.
3. Məktəbni bitirgach, **men** ham Nuriya opadek chevar murabbiya bo'laman.
4. **Bizning** məktəbimiz chiroy ochmoqda.

mahsulot

**122-mashq.** *Gaplarni o'qing. Qo'yish uchun so'zlardan foydalanib, gaplarni to'ldirib yozing. Olmoshlarni belgilang.*

1. Sarvar uyida oyna oldida o'tirib olib gapirishni mashq qildi. \_\_\_\_\_ avval matn tuzdi, so'ng \_\_\_\_\_ yod oldi.
2. \_\_\_\_\_ kelajakda kim bo'lmoqchisiz? 3. Saroyga olib kelib, gilamga diqqat bilan qarashsa, bu gilamni shahzoda to'qigan ekan. \_\_\_\_\_ Shahzodani qanday topish mumkinligi yozilgan ekan.
4. Rahim boboning ko'p shogirdlari bor. \_\_\_\_\_ ustozlaridan kulolchilik sirlarini o'rganib olganlar.

*Qo'yish uchun so'zlar:* U, uni, siz, unda, ular.

|| Ot, sifat, son, fe'l, ravish o'rnila qo'yiladigan so'zlar olmosh deyiladi. ||

|| Olmosh turlanadi, gapda ko'pincha ega, to'ldiruvchi bo'lib keladi. Masalan: *Ularning* qo'llarida bayroqlar hilpirar edi. ||

**123-mashq.** *O'qing. Olmoshlarni topib, ular qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting.*

1. O'tgan yili men boqqa,  
Ekkan edim atirgul.  
Ko'rsangiz u chiroyli,  
Quvnab ketadi ko'ngil.

(A. Po'latov)

2. Men sizlarning olmangiz,  
Xomligimda olmangiz.  
Nortojiga o'xshab so'ng,  
Voy qornim deb qolmangiz.

(E. Vohidov)

3. Kuz keldi,  
Bizlarga oltin kosada,  
Sharbat ola keldi,  
Bol ola keldi.

(Uyg'un)

**124-mashq.** *O'qing. Men, sen, u olmoshlari ishtirokida bittadan gap tuzing. Bu so'zlar gapda qanday bo'lak vazifasini bajarganini aniqlang.*

## KISHILIK OLMOShLARI

**125-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering va o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. **Men** hali yulduzlardan tanlamoqchi bo'lib osmonga tikilaman. 2. **Ular** ertak aytadilar, **men** esa osmonga tikilganimcha eshitaman. 3. **Men** senga yordam bergani keldim. 4. U gullarni parvarishlar ekan. 5. Oyijonim, mehribonim, **sizni** bayram bilan tabriklayman, sog' bo'ling!

**Men, sen, u, biz, siz, ular** so'zlari olmoshlardir. Bu so'zlar kishilarni ko'rsatadi. Shuning uchun bu so'zlar **kishilik olmoshlari** deyiladi. Kishilik olmoshlari **kim?**, **kimlar?** so'roqlariga javob bo'ladi. Ana shu xususiyatlari bilan kishilik olmoshlari otlarga o'xshaydi. **Men, sen, u** olmoshlari birlikni, **biz, siz, ular** olmoshlari ko'plikni bildiradi.

**Men, biz** birinchi shaxsni, **sen, siz** ikkinchi shaxsni, **u, ular** uchinchi shaxsni ko'rsatadigan kishilik olmoshlaridir.

**126-mashq.** *Chiziqlar o'rniga mos kishilik olmoshlarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Hozir \_\_\_\_\_ borib Normamat bobomga yordam beraman. 2. \_\_\_\_\_ yoniga yugurib o'rtog'i keldi. 3. Yaxshiyam \_\_\_\_\_ fikriga qo'shilmaganim. 4. \_\_\_\_\_ kech kirganda uyga kirib bordi. 5. \_\_\_\_\_ maqtanchoq, lekin juda qo'rqqoq ekansan. 6. Xullasi kalom, \_\_\_\_\_ ismi Dilshod emas, Shoshqaloq ekan.


**127-mashq.** *O'qing. Kishilik olmoshlarini topib, ularni tagiga chizing. Kishilik olmoshlariga savol bering.*

Jayron bolasi biram chiroyliki, hammamiz uni yaxshi ko'rib qoldik. Unga sut berib boqdik. Jayroncha bizga juda o'rganib qoldi. Otam: «Endi uni onasining oldiga qo'yib yuborishimiz kerak», – dedilar. Biz jayroncha bilan xayrslashdik. Otam uni ko'tarib yaylovga olib ketdilar.

**128-mashq.** *Rasmni kuzating. «Yordamchilar» mavzusida hikoya yozing. Hikoyada men, sen, u, biz, siz, ular olmoshlaridan foydalaning. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

**Reja:**

1. *Biz mehmonga bordik.*
2. *Buvimga yordam berdik.*
3. *Buvim bizdan minnatdor bo'ldilar.*



**129-mashq.** *Ertakni o'qing. Kishilik olmoshlarini topib tagiga chizing. Ertakni og'zaki davom ettiring. Siz kambag'al dehqonlar o'rnila bo'lganingizda nima qilar edingiz?*

### **HALOLLIK**

O'tgan zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning kambag'al oshnasi bor ekan. Kunlardan bir kuni u dehqondan bir tanob yerni sotishni iltimos qilibdi. Dehqon yerni kambag'al oshnasiga sotibdi. Yerni olgan odam jo'jabirdek jon ekan. U yer sotib olganidan juda suyunibdi. U yerni haydaganida, bir nima omoch tishiga tegibdi. Kambag'al dehqon: «Ilgari bu yerda daraxt bo'lgan, uning to'nkasi qolib ketgan, shekilli», – deb o'yabdi-da ketmon

olib kelib, omoch tishiga tiqilgan narsani kavlay boshlabdi. Nihoyat, u yerdan xumcha chiqibdi. Uni olib qarasa, ichi to'la tilla emish ...

**130-mashq.** *O'qing. Olmoshlarni topib, o'zi bog'langan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. U onasining holatini ko'rib xijolat bo'ldi. 2. Otabobolarimiz bizga nasihat qiladilar. 3. U ham to'ppato'g'ri Ahmadning oldiga chopib keldi. 4. Bilib qo'yki, seni Vatan kutadi. 5. Aziz bolajonlarim, men sizlarga murojaat qilmoqchiman.

**131-mashq.** *She'rni o'qing. Kishilik olmoshlarini topib, tagiga chizing.*

*P. Mo'min*

### **SHO'XCHANG BOLALAR**

Ey, sho'xchang bolalar,  
Sizga ataylab,  
She'r bitdim mehrimdan,  
Sizni avaylab.  
Oh, meni yayratar  
To'poloningiz,  
Har yerda bo'laman  
Sizning yoningiz.  
Judayam yoqadir  
Sho'xchangligingiz.  
Ayniqlsa, chaqqon-u,  
Ixchamligingiz.

**132-mashq.** *Berilgan so'zlardan gaplar tuzing. Tuzgan gaplaringizni yozib oling. Olmoshlarning tagiga chizing.*

1. Yashaymiz, O'zbekistonda, biz. 2. Bilasizmi, ko'cha, harakati, qoidalarini, siz? 3. Do'stlari, uning, taklif, etishdi, kinoga. 4. Iroda, oyingga, yordam, berasanmi, sen? 5. Bugun, navbatchi, sinfda, ular, bo'lishadi.

## KISHILIK OLMOSSLARINING KELISHIKLAR BILAN TURLANISHI

**133-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qiling. Olmoshlarda qo'llangan qo'shimchalar tagiga chizing.*

1. Ikki ne'mat borki, odamlar bularning qimmatini anglab yetadilar. Ulardan birinchisi sog'liq, ikkinchisi esa bo'sh vaqtdir. 2. Non naqadar mo'tabar so'z. Uning zaminida hayot degan ma'no yotadi. Chunki **u** insonni yashashi uchun suv va havodek zarur. Uni uvol va isrof qilmay ishlatish odobdandir.

Kelishik qo'shimchalari bilan turlangan kishilik olmoshlari *men, sen, u, biz, siz, ular – kim?, kimlar?, kimning?, kimga?, kimdan?, kimda?, kimni?* so'roqlariga javob bo'ladi.

Bosh kelishikdagi *men, sen, u, biz, siz, ular* olmoshlari gapda ega vazifasini bajaradi. Masalan: **Biz** kitobni sevamiz.

Qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishigida qo'llangan kishilik olmoshlari *ikkinchidarajali bo'lak* vazifasini bajaradi. Masalan: **Bizga** andazalar yasash yoqadi.

**134-mashq.** *O'qing. Kishilik olmoshlarini topib, ular qaysi kelishikda qo'llanganini aniqlang.*

1. Ular bug'doy, arpa ekishibdi, hosil mo'l bo'libdi.
2. Senga juda havasim kelyapti. 3. Bolalar, sizlar uy ishlarida ota-onangizga va kattalarga yordam berasizmi?
4. Bolaning ishidan mamnun bo'lgan kishi unga o'n ikki tanga beribdi.
5. Kuz keldi,  
Bizlarga oltin kosada,  
Sharbat ola keldi,  
Bol ola keldi.

**135-mashq.** *Chiziqlar o'rniga qavs ichida ko'rsatilgan shaxs-son va kelishikka mos kishilik olmoshlarini qo'yib, gaplarni o'qing.*

*A. Po'latov*

### **YASHNA DOIM, TOP KAMOL!**

Ey dongdor O'zbekiston,  
 «Oq oltin» – paxtaga kon,  
 \_\_\_\_\_ (II sh. birl. j.k.) olqish zafar-shon.  
 Yashna doim, top kamol!  
 Baxtiyor \_\_\_\_\_ (II sh. birl. ch.k.) inson,  
 Shodlikda o'tar har on.  
 Shuhrating elga doston,  
 Yashna doim, top kamol!  
 El \_\_\_\_\_ (II sh. birl. t.k.) vijdonim der,  
 Olg'a qadam tashlayver.  
 Farzandlaring mard, sezgir,  
 Yashna doim, top kamol!

**136-mashq.** *O'qing. So'zlarni namunadagidek shaxsini, kelishigini topib yozing.*

N a m u n a: *Menda: I shaxs, birlik, o'rin-payt kelishigi.*

Senga, undan, bizning, unda, sizga, mening, sening, seni, mendan.

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Kishilik olmoshlariga qaysi so'zlar kiradi?*
2. *Men, sen, u olmoshlarini kelishiklar bilan turlang.*
3. *Biz, siz, ular olmoshlarini kelishiklar bilan turlang.*

## **FE'L – SO'Z TURKUMI**

**137-mashq.** *O'qing. Ajratilgan so'zlarga so'roq berib, ularni qaysi so'z turkumiga kirishini ayting.*

1. Bolalar tut tevaragida chuvillab chillak o'ynashardi.
2. Har kuni mahalla oralab ishga shoshaman.
3. Saidahmad ota qiziq-qiziq ibratli hikoyalar aytib beradi.
4. Hozir bu bolalar ulg'ayib, nabirali, evarali bo'lishdi.

Predmetning harakatini bildirgan so'zlar fe'l deyiladi. Fe'llar *nima qildi?*, *nima qiladi?*, *nima qilyapti?*, *nima qilmoqchi?* kabi so'roqlardan biriga javob beradi.

Fe'llar tuslanadi, uch xil zamonda qo'llanadi, bo'lishli yoki bo'lishsiz shaklida bo'ladi.

**138-mashq.** *O'qing. Fe'llarni topib, ularga so'roq bering.*

Men «Alpomish» dostonining to'rt xil nashrini o'qiganman. Ularning har birini mutolaa qilganimda tamoman yangi manzaralar, ma'nolar kashf qilaman. Har gal yuragimda yangicha bir shavq, jur'at uyg'onadi. Ko'klarga uchgim, hayratomuz ulkan qahramonliklar qilgim

kelaveradi. Nazarimda, bunday katta jasoratlarga kuchim yetmaydigandek tuyulaveradi. Buning uchun odam jismonan ham sog'lom, baquvvat, azamat bo'lishi zarurga o'xshaydi.

**139-mashq.** *Chiziqlar o'rniga quyida berilgan fe'llardan zarurini qo'yib ko'chiring.*

1. Yaqinda sinfdoshlarim bilan istirohat bog'iga \_\_\_\_\_.
2. O'qituvchi bolalardan \_\_\_\_\_. 3. Bolalar qunt bilan hunar \_\_\_\_\_. 4. Alijon bu manzarani soatlab zerikmay tomosha \_\_\_\_\_. 5. U ko'zachani olib tashqariga \_\_\_\_\_.

*Qo'yish uchun so'zlar:* yugurdi, qildi, bordik, so'radi, o'rganadilar.

**140-mashq.** *O'qing. Ajratilgan so'zlarga so'roq berib, ularning qaysi so'z turkumiga kirishini ayting va tagiga chizing.*

### KO'LDA

Bahor kelishi bilan ko'l go'yo qaytadan yasharadi. Kuzda sarg'aygan sohildagi qamishlar orasidan nav-nihollari qad ko'tarib, ko'm-ko'k tusga kiradi, ostlarida allaqanday o'tlar nish uradi, hatto butun yoz bo'yi qumloq bo'lib yotadigan yerlarda ham turli-tuman ko'm-ko'k giyohlar paydo bo'ladi. Qushlar galasi ko'l ustidan chug'urlashib o'tadi. Olamni zavq-shavqqa ko'mib yuboradi. Ular ko'l ustida chug'urlashib bir aylanishdi-da, etak tomonga o'tib, ko'zdan g'oyib bo'lishdi.

**141-mashq.** *Yozdi, chiqdi, ketdi, o'tdi fe'llarini qatnashtirib gaplar yozing. Fe'llarning tagiga chizing.*

**142-mashq.** *She'rni o'qing. Fe'llarni topib, ko'chiring.*

## **CHUMCHUQ**

Qittaygina joning bor,  
 Tiniming yo'q, ey chumchuq!  
 Birov berdimi ozor?  
 Ayt nimang bor, nimang yo'q!

Hovlimizda yurasan,  
 Ushoq izlab ertalab.  
 Tollarga in qurasan,  
 Xas tashiysan bittalab?.

## **FE'LNING GAPDAGI VAZIFASI**

Fe'lllar gapda **kesim** vazifasini bajaradi va **ega** bilan bog'lanadi.

**143-mashq.** *O'qing. Fe'llarni toping, qaysi so'roqqa javob bo'lishini, gapdagi vazifasini aytib bering.*

1. Dadam har bahorda hovlimizga anvoyi gullar ektirar edilar.
2. Rayhonlar bir tekisda o'sib ketishdi.
3. Bog'imizda gilos pishdi.
4. Men daraxt ustiga chiqib bir xalta gilos terdim.
5. Chumchuqlar o'z bolalarini qurt-qumursqalar, chumolidan saqlashar ekan.
6. Rayhon hidiga hasharot kelmaydi.
7. Chumchuq bolalarining ko'zi yumuq, lekin og'zilari ochiq chiyillarydi.

**144-mashq.** *O'qing. Ko'chiring. Fe'llarni topib, tagiga ikki chiziq chizing. Ular nimani ifodalaydi?*

Ixtiyor bobo nabiralarini ko'rgani juda kam keladi, nega deganda ishi juda og'ir, qishin-yozin qir-u tog'larda poda

boqadi. Cho'ponlar odatda kamgap bo'ladilar, ammo Ixtiyor bobo unaqa emasdi, nabiralariga qiziq-qiziq hangomalar so'zlab beradi. Har kelganida bir xalta qurut olib keladi. Bunday yog'li, mazali qurutni shahardan topib bo'lmasdi.

**145-mashq.** *O'qing. Fe'llarni aniqlang, ularga so'roq bering.*

### **O'RGIMCHAKLAR**

O'rgimchaklarning gavdasi asosan bosh, ko'krak va qoringa bo'linadi. Ularda mo'ylov bo'lmaydi, ko'zлari bir nechta bo'lsa ham juda oddiy. Yaqin yerdagi narsanigina ko'ra oladi, xolos. Bosh ko'kragida yuqori va pastki jag'lari, to'rt juft oyog'i bo'ladi. Bu oyoqlar yurish hamda o'ljani ushslash uchun xizmat qiladi.

**146-mashq.** *Topishmoqlarning javobini ayting. Fe'llarni aniqlang, ularga og'zaki savol bering.*

1. «G'ir-g'ir» deydi, ishlaydi,  
Yerga kukun tashlaydi. (arra)

2. Bir sim bor xo'p uzun,  
Ketgan juda uzoqqa.  
Eshitasan so'zini,  
Tutib ko'rsang quloqqa. (telefon)

3. O'zi bitta-yu, qo'li to'rtta,  
Ishni qoyil qilar, albatta. (zambill)

**147-mashq.** *O'qing. Fe'llarni topib, ularga so'roq bering. Gapdagi vazifasini aniqlang. Ularning tagiga chizing.*

## SEN ERTA TURIB

Sog'liq zavqin sur  
Sen erta turib.  
Maydonga yugur  
Sen erta turib.

Havo musaffo,  
Artilgan go'yo,  
Qilaver huzur  
Sen erta turib.

Toblansang asta  
Bo'lmarysan xasta.  
Shirin xayol sur  
Sen erta turib,

Chiqqan quyoshga,  
Keksaga, yoshga –  
Salomga ulgur  
Sen erta turib.

## BO'LISHLI VA BO'LISHSIZ FE'LLAR

Fe'llar bo'lishli va bo'lishsiz shaklida qo'llanadi. **Bo'lishli fe'llar** harakatni bajarishni, **bo'lishsiz fe'llar** esa harakatni bajarmasligini bildiradi. **Bo'lishsiz fe'llar** fe'l o'zagiga -*ma* qo'shimchasini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan: Shifokor bolalarni davolaydi. Bahodir kasal, shuning uchun u mактабга *bormaydi*.

**148-mashq.** *O'qing. Ko'chiring, avval bo'lishli fe'llarga, so'ngra bo'lishsiz fe'llarga savol bering.*

## ASSALOMU ALAYKUM

Qarang, shu birgina so'zda qanchalar joziba, qanchalar chiroy, qanchalar odob bor! Tanish yo notanishni, yoki o'zidan kattani ko'rganda «Assalomu flaykum» deguvchi kishini yuzida birdaniga «lop» etib joziba chirog'i yonib ketadi. U salom beruvchi tomonga mayin yuzlanib – «Vaalaykum

assalom», – deydi. Mana shu kichkinagina manzaradan ko'rib turibsiz, bir odam salom berdi, ikkinchisi esa alik oldi. Ortiqcha bir narsa bo'ljadi shekilli. Yo'q, bo'ldi. Bu faqat tashqaridan qaragandagi taassurot, aslida esa salom beiz, beta'sir ketmaydi. Har ikkala qalbda ahillik, yaxshilik hissi uyg'onib ketdi.

**149-mashq.** *O'qing. Topishmoqlarning javobini ayting. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang.*

1. Tishlasa qo'ymaydi,  
O'tin yorib to'yaydi.



2. Yigirma besh og'ayni,  
Bir-birini quvalar.  
Bir-biriga yetolmay,  
Ko'z yoshlarin to'kar.

3. Ko'rmasdan oqadi,  
Chiroqlarni yoqadi.



**150-mashq.** *O'qing. Avval bo'lishli fe'llarni, so'ngra bo'lishsiz fe'llarni toping va ko'chiring.*

Tolibjon ertasi kuni xuddi hech nima bo'lmagandek maktabga bordi. Indamay partasi tomonga o'tdi. Dars boshlanishi oldidan kutilmagan hodisa sodir bo'ldi. Sayyora uning yoniga keldi-da, uyalinqirab «Ona tili» darsligini unga uzatdi.

**151-mashq.** *Ko'chiring. Bo'lishli fe'lni bo'lishsiz fe'lga aylantirib yozing. Bo'lishsiz fe'lni hosil qilgan fe'lni tagiga chizing.*

Yozdi – yozmadı.

O'qidi –

Aytdi –

Uxladi –

Chiqyapti –

Kelyapti –

Saqlaydi –

Ishlaydi –

**152-mashq.** *O'qing. Fe'llarni aniqlang, ularga og'zaki savol bering. Fe'llarni ko'chiring, yoniga so'rog'ini ham yozing.*

N a m u n a: *shoshiladilar* (nima qiladilar?)

Sinfdoshimiz Asad intizomli o'quvchilardan. U ketma-  
ket uch kun o'qishga kelmadı. Ustozimiz Jamila opa  
Asad nima sababdan o'qishga kelmayotganini surishtirib  
qoldilar. Biz javob berolmaganimizdan keyin, Asadning  
holidan xabar olishni maslahat berdilar.

**153-mashq.** *O'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlang. Ko'chiring. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing.*

1. Men ketishga shoshilmadim.
2. Uni urinmasin, deb boshqa gapga solmadim.
3. Oyisi kelguncha yonida o'tirdim.
4. Maktabda Navro'z bayrami kuniga qo'l mehnati ishlari ko'rgazmasi o'tkaziladigan bo'ldi.
5. Husan shoshib qoldi.
6. Borishga Akmalning oyog'i tortmadi.

**154-mashq.** *Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarga 8 ta so'z toping va 4 ta gap tuzing.*

**155-mashq.** *Bo'lishsiz fe'llarni topib, ularni belgilang.*

*M. Boboyev*

### **YULDUZLAR**

– Uxlamaydi yulduzlar,  
Yumilmaydi ko'zchasi.  
Ayting-chi, aka ular,  
Qo'rqlaydimi kechasi?  
– Yulduzlar qo'rqlamas aslo,  
Chunki birdam va ahil.  
Birdam bo'lsang hech narsa  
Qo'rqlinchli emas, axir.

**156-mashq.** *Gaplarni o'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni aniqlab, tagiga chizing.*

1. Kechki ovqatdan keyin dadamlarga xat yozishga o'tiraman. 2. O'qishdan kelsam, oyim hali ishdan qaytmabdilar. 3. Oyim qult-qult yutinib olgach, xuddi istamaganday javob berdilar. 4. Osmonda yashin chaqnab, bir necha bor momaqaldiroq gumburladi. 5. Har xil xayollar bilan mening hech uyqum kelmaydi. 6. Bobom ko'p gapiradigan kishini aslo yoqtirmaydilar.

### **FE'L ZAMONLARI**

**157-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga diqqat qiling. Fe'llar zamonini aniqlab ayting.*

1. Men hayron **qoldim**. 2. U judayam chiroyli bo'lib ketgandi. 3. To'g'risi Ozodani jinim **suymaydi**. 4. Nazokat

bugun uyida tug'ilgan kunini **nishonlayotgan** ekan.  
5. Alijon bu manzarani soatlab, zerikmay tomosha qiladi.

Fe'lda uch zamon bor: 1) **O'tgan zamon.** 2) **Hozirgi zamon.** 3) **Kelasi zamon.** Harakatni nutq so'zlab turgan vaqtadan oldin bajarilganini bildirsa, u **o'tgan zamon fe'li** deyiladi. Masalan: *o'qidim*. Harakatni so'zlab turgan paytda bajarilayotganini bildirsa, bu fe'llar **hozirgi zamon fe'li** hisoblanadi. Masalan: *o'qiyapman*. Harakatni nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajarilishini bildirsa, ular **kelasi zamon fe'llari** deyiladi. Masalan: *o'qimoqchiman*.

Zamon va shaxs-son qo'shimchalarini olgan fe'llar gapda kesim vazifasini bajaradi va ega bilan bog'lanadi. Masalan: *Biz mustaqil O'zbekistonimiz tarixini o'rganmoqchimiz*.

**158-mashq.** *Ishla, yoz, kel fe'llarini uch zamonda qo'llab, ular ishtirokida bittadan gap tuzing.*

**159-mashq.** *O'qing. Fe'llarni topib, zamonini aniqlang va tagiga chizing.*

## TOSHBAQALAR

Toshbaqalar suvda va quruqlikda hayot kechiradilar. Eng katta toshbaqa dengiz toshbaqasi hisoblanib, uni terili toshbaqa deb atashadi. Chunki bu toshbaqa kosasini ustki qismi teri bilan qoplangan. U O'rta yer dengizi, Atlantika, Tinch va Hind okeanlarida uchraydi. Toshbaqalar uzoq umr ko'radilar, ular 200 yilga qadar yashaydilar.

Toshbaqalar

**160-mashq.** *O'qing, so'roqlar orqali fe'llarni aniqlang, ularning zamonini ayting.*

### XANDALAR

- Qizim nega xafasan?
- Bilasizmi oyijon, plashdan o'zimga ko'ylik tikmoqchi edim.
- Voy chevar qizim-ey, tika oldingmi?
- Yo'q, hech chiqmayapti.
- Endi nima qilmoqchisan?
- Tashlab yubordim.
- To'xta, plash o'zi kimniki edi?
- Sizniki, oyijon.

\* \* \*

Daryo bo'yida o'tirgan Lobar Go'zalga dedi:

- Daryoning suvi nega ko'piklab oqayapti ekan-a?
- Daryodagi baliqlar kir yuvishayotgandir-da! – dedi Go'zal.

**161-mashq.** *Berilgan fe'llarning zamonini aniqlang va quyidagi tartibda yozib chiqing.*

1. O'tgan zamon fe'li:
2. Hozirgi zamon fe'li:
3. Kelasi zamon fe'li:

Tamomladilar, shoshildik, yozganman, yubormoqchiman, bormoqchi, o'tkazmoqdasan, yashayapmiz, qo'rqlmayapsanmi, intildi, yozmoqchisan, tayyorladi.

**162-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarga diqqat qiling. Fe'l zamonini aniqlab ayting. Ular gapda qanday vazifa bajargan?*

1. Ikki do'st yurib-yurib, oxiri bir karvonsaroya yetib kelishibdi. Ular poxol to'shalgan joy topib, to'nlarini yopishibdi. Do'stlar shunday qattiq charchagan ekanlarki, hatto cho'ntaklaridagi ko'mirni bo'shatishga ham ulgurmay, birpasda dong qotib **uxlab qolibdilar**.

2. Yo'lbars hayron bo'lib so'radi:

– Nega yig'layapsan, Tulkivoy? – Men sizni ko'rishim bilan darrov otangiz yodimga **tushib ketdi**. Ular shunday epchil edilarki, hatto eng katta jarlikdan ham sakrab **o'ta olardilar**. Endi bo'lsa, bunaqangi epchillikni menga ko'rish qayda deysiz?

Yo'lbars Tulkining oldida maqtangisi kelib, jardan sakrab **o'tmoqchi** bo'libdi-yu, jarga tushib, til tortmay o'libdi.

## O'TGAN ZAMON FE'LI VA UNING TUSLANISHI

**163-mashq.** *O'qing. Fe'llarni topib, ularni tarkibidagi zamon va shaxs-son qo'shimchalarini aniqlang.*

1. Sinfimiz o'quvchilari o'quv yilining I choragini yaxshi yakunladilar. 2. Alisher Navoiy o'n beshinchi asrda yashagan. 3. Ular sayroqi qushlar oldida uzoq turib qoldilar. 4. O'quvchilar mакtabning katta zalida yig'ildilar. 5. Ko'l yonida sport maydoni qurilgan.

**O'tgan zamon fe'li** harakatning nutq so'zlanib turgan paytidan avval bajarilganini (yoki bajarilmaganini) bildiradi. Masalan: *yozdim, yozganman*.

O'tgan zamon fe'li bo'lishli (yoki bo'lishsiz) fe'llarga *-di, -gan* qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil qilinadi.

*-di* qo'shimchasi jarangsiz undoshlardan so'ng *-ti* tarzida aytildi, ammo *-di* yoziladi. Masalan: *aytti – aytdi*, *tushti – tushdi*, *-gan* qo'shimchasi jarangsiz undoshlardan so'ng *-kan* tarzida aytildi, ammo *-gan* yoziladi. Masalan: *tepkан – tegан*. Bu qo'shimcha *q* undosh bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda *-qan* tarzda, *k* undoshi bilan tugagan fe'llarga qo'shilganda *-kan* tarzida aytildi va shunday yoziladi. Masalan: *chiq – chiqqan*, *tik – tikkan*.

**164-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan fe'llarning zamonini va shaxs-sonini ayting. Fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing.*

1. Baxtiyor yaqinda jarohatlangan bir qushchani topib oldi.
2. Zamiraning o'ynoqi, sho'x va yoqimli kuylari hammamizni maftun etdi.
3. Yam-yashil archalar qor bilan qoplangan.
4. Erkin vazifani tez tushunmadi.
5. Mehrixon qiziq bir voqeani hikoya qilib berdi.
6. Bog'da barcha mevalar g'arq pishgan.
7. Hovuz bo'yida katta daraxt o'sardi.

**165-mashq.** *O'qing. Berilgan fe'llarni o'tgan zamonda to'liq tuslang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.*

O'qi, pishirdi, yugurdi.

**166-mashq.** *O'qing. O'tgan zamon fe'llarini aniqlang. Uлarni aytilishi va yozilishiga e'tibor bering.*

1. Men otilib tashqariga chiqdim.
2. G'aramlardan birini oldiga borib to'xtadim.
3. G'aramlarning yon tomonidan yarmigacha ochib, to'rtta shakarli qop bir-biriga suyab qo'yilganini ko'rdik.
4. Ko'z yumib ochguncha hammayoqni odam bosib ketdi.
5. O'sha kuni men bilan hech kimning ishi bo'lmadni.

**167-mashq.** *O'qing. Nuqtalar o'rniga qavs ichida berilgan qo'shimchalarining mosini qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Bahor kelishi bilan olkamizda obodonlashtirish ishlari boshlana...(-di, -ti). 2. Qushlar gurr etib uchib ket...(-di, -ti). 3. Cho'lda jazirama issiq bo'la...(-di, -ti). 4. Bog'bonlar mevali daraxt o'tqaz...(-di, -ti) lar. 5. Asalarilar bog', dala kezib tinmay ishlay...(-di, -ti). 6. Mansur kuchugini bo'ynidan quchib erkalay...(-di, -ti).

### **HOZIRGI ZAMON FE'LI VA UNING TUSLANISHI**

**168-mashq.** *Yasha, bor fe'llarini -moqda, -yap qo'shimchalari qo'yilgan holda tuslang.*

N a m u n a:

**Birlik.**

I shaxs	kelmoqdaman
II shaxs	kelmoqdasan
III shaxs	kelmoqda

**Ko'plik.**

kelmoqdamiz
kelmoqdasiz
kelmoqdalar

obodonlashtirish

Hozirgi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytda bajarilayotgan harakatni bildiradi. Masalan: ishlayapman, ishlamoqdaman. Hozirgi zamon fe'li **-yap**, **-moqda** qo'shimchalarini qo'shish bilan hosil bo'ladi.

**169-mashq.** *O'qing. Fe'llarni topib, zamonini aytинг.*

Roziya xolani mahallamizdagi qari-yu, yosh «mehnat-sevar, pokiza ayol» deydi. Bejiz aytishmagan buni.

Hovlisi chinnidek, buning ustiga uni gulxonaga aylantirib yuborgan. Chamandek gulzor. Bo'sh qoldimi, tamom, odamlar singari eshik sanamaydi, gap sotmaydi, gullarni sug'oradi, tagini chopadi.

**170-mashq.** *O'qing. Ajratilgan fe'llarga so'roq bering. Ajratilgan fe'llarni ko'chiring, shaxs-son qo'shimchasini belgilang.*

1. Traktorlar yer **haydamoqda**. 2. Mirtoji aka traktorchilarga **yordam bermoqda**. 3. Qo'lida ketmoncha ko'targan Farrux chuqur kavlayotgan **ekan**. 4. O'tlar ustida chigirtkalar sakrab-sakrab o'ynayaptilar. 5. Gulnoza kitob o'qimoqda. 6. Biz ko'pgina murakkab matematik hisoblarni kompyuter yordamida **bajarmoqdamiz**.

kompyuter

**171-mashq.** «*Inson odobi bilan go'zal» mavzusida hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing. Tuzilgan hikoyadagi fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing.*

**Reja:**

1. *Odobli bolalar.*
2. *Yaxshi odatlar.*
3. *Odobim – oftobim.*

## KELASI ZAMON FE'LI VA UNING TUSLANISHI

Kelasi zamon fe'li nutq so'zlanib turgan paytdan keyin bajariladigan harakatni bildiradi. Masalan: *yozmoqchisan*, *yozmoqchimiz*, *yozmoqchi*. Kelasi zamon fe'li -*moqchi* qo'shimchasini qo'shish bilan hosil bo'ladi. Shaxs-son qo'shimchasi zamon qo'shimchasidan so'ng qo'shiladi.

**172-mashq.** *O'qing. Fe'llarni topib, zamon va shaxs-sonini aniqlang.*

1. Bahorgi ta'tilda sen qaysi kitoblarni o'qimoqchisan?
2. Dars tugab, sinfdoshlar birga uyga qaytmoqchilar.
3. Yodgor o'n-o'n besh metr orqadan yugurib kelib hammadan uzoqqa sakramoqchi bo'ldi.
4. Bolalar ham orqadan yugurib kelib, ariqdan sakrab o'tmoqchilar.
5. Sherzod otasiga ko'maklashmoqchi.

**173-mashq.** *Bor, sakra fe'llariga -moqchi qo'shimchasini qo'shing va tuslang. Ularni yozib, shaxs-son va zamon qo'shimchalarini tegishlich belgilang.*

**174-mashq.** *O'qing. Berilgan fe'llarga qarama-qarshi ma'noli fe'llar topib, ularni yonma-yon yozing. Fe'llarni qatnashtirib gaplar tuzing.*

Bordi, yugurdi, chaqirdi, oldi, keldi, o'tirdi, o'qidi.

**175-mashq.** *O'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarni topib, ularni zamonini aniqlang.*

Ko'rmadi, o'ynab ketgan, kelmoqchi, aytmadi, ichdi, qolyapti, demoqchi.

**176-mashq.** *She'rnii ifodali o'qing. She'rdagi fe'llarning zamonini, shaxs-sonini aniqlang.*

*Sh. Sa'dulla*

Tog'laringda kezganman  
Bog'laringda kezganman,  
Ona diyor, mehringni  
Har qadamda sezganman.

Sevdik seni umrbod,  
Sen borsanki kongil shod.  
Ne buyursang biz tayyor,  
Biz – baxtiyor yosh avlod!

**177-mashq.** *Ertakni o'qing. Ertak qahramonlari qaysi ertakdan olingan. Ertakdag'i parchani o'qib, so'ng og'zaki davom ettiring. Fe'llarni topib, yozib oling.*

Bir zamonda katta bir soy bo'yida kichkinagina bir uy bo'lar ekan, soyning bir tomoni qalin o'rmon ekan.

Bu uyda chol va uning Zumrad degan qizi, o'gay ona va uning Qimmat degan arzanda qizi yashar ekan.

Zumrad xo'p chiroyli, odobli, muloyim, aqli qiz ekan. Uni bir ko'rgan kishi yana ko'rsam deb orzu qilarkan. U juda ajoyib qiz ekan. Qimmat esa ishyoqmas, injiq va dimog'dor qiz ekan. Qimmatning butun kuni urush, janjal va to'polon bilan o'tar ekan...

## QO'SHMA FE'LLAR

**178-mashq.** *O'qing. Ajratilgan fe'llarga so'roq bering. Ajratilgan fe'llar nechta fe'lidan tuzilgan? Shu fe'llarning zamonini aniqlang.*

1. Bola maysaga yotib oldi.
2. U gapini davom ettirdi.
3. Dilorom quvonib ketdi.
4. Karim chumolilarga tikilib qoldi.
5. Dildora maktabga vaqtida yetib keldi.
6. Salimjon qo'rqib ketdi.
7. Karimjon og'ir-og'ir nafas olib, bo'lgan voqeani gapirib berdi.

Ikki va undan ortiq so'zdan tuzilgan fe'llar qo'shma fe'llar deyiladi. Masalan: *ahd qildim, aytib berdi, javob berdi, mashq qildi*. Qo'shma fe'l tarkibidagi har bir so'z alohida-alohida yoziladi.

**179-mashq.** *Berilgan qo'shma fe'llarni o'qing va tuslang. 2 ta gap tuzing.*

Chaqirib qoldi, quvonib ketdi, adashib qoldi, qarshi oldi, aytib berdi.

**180-mashq.** *Chiziqchalar o'rniga berilgan qo'shma fe'llardan mosini qo'yib, matnni o'qing va yozing.*

1. Salimjonning singlisi Ra'no kasal \_\_\_\_\_.
2. Bolalar quyonchani avaylab o'z joyiga \_\_\_\_\_.
3. Bolalar atrofni \_\_\_\_\_. 4. Bechora quyon shoshilganidan haydalgan yerga \_\_\_\_\_.
5. Chug'urlashib bolalar gul terishga \_\_\_\_\_.

*Qo'yish uchun so'zlar:* bo'lib qoldi, tomosha qilishardi, qarab qochdi, eltib qo'ydilar, tushib ketishdi.

### **181-mashq. O'qing, qo'shma fe'llarni ko'chiring.**

1. U uyiga qaytib ketdi. 2. Bir vaqt uyning burchagidan bir zaharli ilon chiqib, o'rmalab kelaveribdi. 3. Hammayoq yashnab ketibdi. 4. Katta tanaffusdan keyin Mo'min sinfga iljayib kirdi. 5. Murodjon mushugini olib chiqdi. 6. Ormonda bir g'aroyib qush paydo bo'lib qoldi.

### **182-mashq. O'qing. Qo'shma fe'llarni aniqlang. Ularni tegishlicha belgilang.**

1. Bola nafasini ichiga yutib, toshlar panasidan chiqdi va xuddi tushdagiday, qo'llarini oldinga cho'zib qirg'oqqa, suvning oziga yaqin keldi. Bug'ularning hech birisi hurkmadi, narigi qirg'oqdan unga bamaylixotir qarab turaverdi. 2. O'rtada, suv ostidagi toshlar ustidan irg'ishlab, tezoqar, ko'm-ko'k tiniq daryo qaynab oqib yotardi. 3. Mana ular burildi-da, tizilgancha shag'aldan o'rmon tomonga yurib ketdi. 4. Bug'ular daraxtzorga kirib, butalar oralab ketishdi.

### **183-mashq. O'qing. Ajratib yozilgan fe'llarga savol bering. Ularni tegishlicha belgilang.**

#### **RASSOM G'ANISHER**

«Senimi shoshmay tur!» multfilmini ko'rib ta'sirlangan G'anisher darrov qo'liga qalam olib, quyonning rasmini **chiza boshladidi**. Rasm bitgach, G'anisher maqtanib uni ko'z-ko'z qildi. Jajji singlisi Ra'no «Iya, quyonning ham oyog'i sakkizta bo'ladimi?» – deb yubordi.

Hammalari rasmga tikilib qolishdi. Shunda G'anisher sir boy bermadi:

– Quyonning oyog'ini sakkizta qilmasam, bo'ri yetib olib, uni yeb qo'yadi-da! – dedi.

## JUFT FE'LLAR

**Juft fe'llar** o'zaro bog'langan ikki harakatni bildiradigan so'zlarning qator kelishi – tizilishi bilan tuzilgan so'zlarga aytildi. **Juft fe'llar** (-) chiziqcha bilan yoziladi.

**184-mashq.** *O'qing. Juft so'zlarning ma'nosini tushuntiring.*

Aytdi-qo'ydi; yig'im-terim; chiqdi-ketdi; o'tar-ketar; bordi-keldi; yozdi-qo'ydi.

**185-mashq.** *O'qing. Juft so'zlarning ma'nolariga diqqat qiling. Ularni solishtirib, bir-biridan fargini aytib bering.*

Mosh-guruch, aytdi-qo'ydi, qor-yomg'ir, yozdi-qo'ydi, yaxshi-yomon, kitob-daftar, uy-joy, to'lib-toshib.

**186-mashq.** *Gaplarni o'qing. Juft fe'llarning tagiga chizing.*

1. Uning qanaqaligi yurish-turishidan ma'lum edi, shuning uchun ko'chamizdagi bolalar undan nari yurishar edi.
2. O'quvchilar yelib-yugurib Naziraga qarashib yuborishdi.
3. Shavkat bilib-bilmay shu eshikni ochdi.
4. U daftariga erinibgina yozdi-qo'ydi.

**187-mashq.** *Gaplarni o'qing. Qo'yish uchun so'zlardan foydalananib, gaplarni to'ldirib yozing. Juft fe'llarning tagiga chizing.*

1. Musofirlar \_\_\_\_\_ cho'l-u biyobonga borib qolishdi.
2. Chillak o'ynayotgan bolalar qarashsa, antiqa bir narsa \_\_\_\_\_ kelayotganimish.
3. Bolalar hayron bo'lib turishsa, Soqqa ularning yoniga kelib, \_\_\_\_\_ gapira ketibdi.

*Qo'yish uchun so'zlar:* yurib-horib, dumalab-dumalab, bidir-bidir.

**188-mashq. O'qing. Juft so'zlar hosil qilib yozing.**

Kelish va borish, qo'ni va qo'shni, kampir va chol, erta va kech, aytdi va qo'ydi, yem va xashak, opa va singil, aka va uka, ota va bola, qarindosh va urug', yig'im va terim.

**189-mashq. O'qing. Juft so'zlarni aniqlang va ularni belgilang.**

1. Ahror vazifani bajarmay chiqdi-ketdi.
2. Kozimning yurish-turishi oxirgi kunlarda boshqacha bo'lib qolgan.
3. Nilufar to'lib-toshib gapirar edi.
4. Dalalarda yig'im-terim ishlari boshlanib ketdi.

**190-mashq. Quyidagi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.**

Uzun-qisqa.	Do'st-yor.
Yurish-turish.	Mol-dunyo.

### Savol va topshiriqlar

1. *Fe'l so'z turkumi deb nimaga aytildi? Misol keltiring.*
2. *Fe'llarda nechta zamon bor?*
3. *Fe'l zamonaligiga misol keltiring.*
4. *Qo'shma va juft fe'llarga misol keltiring.*

## RAVISH – SO'Z TURKUMI

191-mashq. *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering.*

1. Bugun maktabimizda yugurish musobaqasi bo'ldi.
2. Qudrat shoshmasdan gullarga suv quydi.
3. Bu voqeal juda qadimda bo'lib o'tgan.
4. Gapni kam so'zla, ishni ko'p ko'zla.

Ish-harakat, holatning belgisini bildirgan so'zlar turkumi **ravish** deyiladi.

Ravish *qanday?, qachon?, qayerda?, qayerdan?, qayerga?, qancha?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi.

192-mashq. *O'qing. Ravishlarni topib, ularni belgilang.*

## MAJNUNTOL

O'tgan yili Ro'zi bobo ko'cha bo'yida majnuntol ekkan edilar. Erta bahor shoxlarida kurtak paydo bo'lib, gullay boshladi. Ra'no, Lola singari qizaloqlar sochpopuk qilaman deb uning chiroyli novdalarini sindirib olishdi. Anvar esa kichik shoxidan kesib toychoq qilib o'ynadi. Shoxlari singan majnuntol pati yulangan tovuq singari shumshayib qoldi. Bahor o'tib, yoz boshlandi. Jazirama kunlar keldi. Ko'chada o'ynab yurgan Ra'no, Lola, Anvarlar majnuntol soyasiga o'zlarini olishdi. Ammo uning soyasi ularga yetmasdi.

– Mening novdalarimni sindirib olmaganlaringda sizlarga soya berardim, – dedi majnuntol.

Bolalar qilgan ishlaridan pushaymon bo'ldilar.

## Savollar

1. Bolalar sizlar ham shunday ish qilgan bo'larmidингиз?
2. Siz ham shunday voqealarni bilasizми?

Ravish ko'pincha fe'lga bog'lanib, ish-harakatning qay holda bajarilishini, paytini, o'rnini, daraja-miqdorini bildiradi. Masalan: *Kecha havo sovuq edi.*

193-mashq. *O'qing. Ish-harakatning paytini, qay holda bajarilganini bildirgan ravishlar qaysi so'zga bog'langanligini aniqlab, ularni birga ko'chiring.*

1. Oz so'zla, ko'p tingla. 2. Normamat bobo asta kelayotgan edi. 3. Sal vaqtdan so'ng eshik ochildi. 4. Ko'rding-mi, men qanday zo'r o'qidim. 5. U har ishda namuna bo'lishni istardi. 6. Quyosh ko'tarilib, yangi jo'shqin kun boshlandi.

194-mashq. *Kech, asta-sekin, tezroq so'zlari ishtirokida gaplar tuzing. Ravishlarning tagiga chizing.*

195-mashq. *O'qing. Ravishlarni aniqlab, qanday so'roqqa javob bo'lishini ayting. Tagiga chizing.*

1. U kech kirganda uyga kirib bordi. 2. Bola-chaqasi ko'p kambag'al qo'shnining uyi kecha-yu kunduz shovqinsuron bo'lib, boy qo'shnisiga hech tinchlik bermas ekan. 3. Biz allaqachon yangi uyga ko'chgan edik. 4. Musicha avval kaptarimga ham ovqat tashib yurdi. 5. To'xtab bir zum osmonga qaradim. 6. Tog'asi bugun ham uni aylantirgani birga olib chiqqan.

196-mashq. *O'qing. Avval fe'llarni, keyin ravishlarni ko'chirib yozing.*

Asta, keldi, bordi, aytdi, darrov, yaqqol, hamisha, kecha, har kuni, ko'pincha, yonma-yon, arang, uchdi, yozdi.

**197-mashq.** *Ravishlardan foydalaniib, 4 ta gap tuzib yozing. Ravishlarning tagiga chizing.*

**198-mashq.** *Rasmga qarab gaplar tuzing. Tuzgan gaplar ringizdan hikoya hosil bo'ssin. Hikoyani yozing, fe'llarning tagiga ikki chiziq chizing.*



Sport

**199-mashq.** *O'qing. Berilgan so'zlardan gaplar tuzing va yozing. Ravishlarni belgilang.*

1. Boramiz, har kuni, biz, tovuq, fermasiga, darsdan so'ng.
2. Keldi, uzoq, qishloqdan, qarindoshlari, uyiga, Lobarning.
3. Tarqalishdi, mehmonlar, kechga, yaqin.
4. Gulnora, ko'tarib, olgan edi, katta qo'g'irchog'ini.
5. Paydo bo'lди,

osmonda, kamalak. 6. Bobom, nihol, ko'chati, o'tqazadilar, har, bahor.

**200-mashq.** *So'zlarni o'qing. Sifat, son, ravishlarni jadvaldag'i tegishli so'z turkumiga joylashtiring.*

sifat	son	ravish

Har tomonda, binafsha rang, o'n besh, har fasl, bir, ertalab, ozoda, yigirma, darrov, hozir, xursand, quvnoq, yuz, ikki.

## **RAVISHLARNING MA'NO JIHATIDAN TURLARI. HOLAT VA PAYT RAVISHI**

Ravishlar ma'no jihatidan to'rt turga bo'linadi:  
**holat ravishi, payt ravishi, o'rın ravishi, daraja-miqdor ravishi.**

Holat ravishi ish-harakatning qanday holatda bajarilganini bildirib *qanday?*, *qay holatda?*, *qay tarzda?* so'roqlariga javob bo'ladi. Holat ravishiga *asta, sekin, jim, yayov, chindan, arang, darrov, darhol, birma-bir, astoydil* kabi so'zlar kiradi.

Payt ravishi ish-harakatning bajarilish paytini bildirib *qachon?*, *qachongacha?*, *qachondan?*, *qachondan beri?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Payt ravishiga *erta, endi, ertalab, ilgari, so'ngra, keyin, hanuz, kunduzi, har kuni, hozir* kabi so'zlar kiradi.

**astoydil**

**201-mashq.** *Ko'chiring. Holat va payt ravishlarini aniqlang va yozing.*

1. Laylak bir necha kundan keyin tamom sog'ayib ketdi.
2. Birozdan keyin haligi laylak orqasiga qaytdi.
3. Qaytishda laylak pastlab uchib yerga uch dona tarvuz urug'ini tashlab o'tdi.
4. Lola darslarga astoydil tayyorlangan edi.
5. Karimov Erkin tasodifan do'stini uchratib qoldi.
6. Yaqinda chet eldan mehmonlar uchib kelishadi.

**202-mashq. O'qing. Ravishlarni topping va tagiga chizing.**

1. Ertaga uyimizga qishlog'imizning hamma keksa bobolari kelishadi.
2. Gulbonu va Odiljon ko'pincha birga dars tayyorlaydilar.
3. Xonaga sekin kirdik.
4. Kechasi havo sovuq bo'ldi.
5. Ko'pincha ukamni bog'chadan men olib kelaman.
6. Bolalar, har kuni ertalab badantarbiya qiling.

Badantarbiya

**203-mashq. Maqollarni o'qing. Payt va holat ravishlarini aniqlab, ularni tagiga chizing.**

O'qishning erta kechi bo'lmas.

Ko'za kunda sinmaydi,

Kunida sinadi.

Gapning qisqasi yaxshi.

Ko'p gapdan oz bo'lsa ham ish yaxshi.

**204-mashq. O'qing. Avval ot so'z turkumini, so'ng ravishlarni ko'chiring.**

Qo'qqisdan, gul, Samarqand, tasodifan, dastlab, televizor, erta-indin, Gulchiroy, qishin-yozin, ko'pincha, O'ktam, kitob, mashina.

**205-mashq.** «*Issiqxonada*» mavzusida qisqa hikoya tuzing va yozing. Hikoyangizda yaqinda, har kuni, avval, astoydil, hamisha so'zlaridan foydalaning.

**Issiqxona**

## **O'RIN VA DARAJA-MIQDOR RAVISHI**

**O'rın ravishi** ish-harakatni bajarilish o'rnini bildirib, *qayerda?*, *qayerdan?*, *qayerga?* so'roqlariga javob bo'ladi. O'rın ravishiga *allaqayerda*, *allaqayerga*, *allaqayerdan*, *quyida*, *bu yoqqa* kabi so'zlar kiradi.

**Daraja-miqdor ravishi** ish-harakatning daraja-miqdorini, belgining darajasini, predmetning noaniq miqdorini bildirib, *qancha?*, *qay darajada?* so'roqlariga javob bo'ladi. Daraja-miqdor ravishiga *juda*, *ko'pgina* kabi so'zlar kiradi.

**206-mashq.** *O'qing. Ravishlarni topib, ma'no jihatdan turini aniqlang.*

1. Qizlar ko'pincha buviga yordam beradilar.
2. Mohinur shoshilganicha oynani ochdi.
3. Tog' orqasidan asta shamol ko'tarildi.
4. Tong allaqachon yorishgan edi.
5. Badantarbiya mashg'ulotlarini juda sevamiz.
6. So'nggi hafta sovuq bo'lib turibdi.

**207-mashq.** «*Kasbim – faxrim*» mavzusida bayon yozing.

**Reja:**

1. *Men tanlagan kasb.*
2. *Nima uchun shu kasbni tanladim.*
3. *Yaxshi o'qish – burchim.*

**208-mashq. *Gaplarni o'qing. Ravishlarni topib, ularni belgilang.***

1. Qishloqning qoq o'rtasida Tulpor ko'lning qirg'og'ida ulkan chinor bor. Uning soyasi juda katta maydonni egallaydi. O'tkinchi yo'lovchilar ham shu chinor tagida dam olib, so'ng yo'lga tushadilar. 2. Oysha ukasiga tunov kuni yozlik to'r do'ppi to'qib berdi. 3. Kechga yaqin Valining qorni og'riy boshladи. 4. Adham kech bo'lganini ham bilmadi.

**209-mashq. *Qavslarni tushirib qoldirib, ko'chiring.***

Har (yoqda), alla (qayerda), shu (yerdan), bu (yerga), alla (qayerdan), har (doim), bir (pas), har (qachon), shu (onda), bir (yo'la), alla (qachon).

### **Savol va topshiriqlar**

1. *Qanday so'zlar ravish so'z turkumiga kiradi?*
2. *Ravishlarni ma'no jihatdan turlarini ayting, har biriga misol keltiring.*

## NUTQ VA GAP

### GAP VA UNING TURLARI. DARAK, SO'ROQ VA UNDOV GAPLAR

Gap tugallangan mazmunni bildiradi. Gap so'zlardan tuziladi. Gapda so'zlar mazmun jihatdan o'zaro bog'lanadi. Gapning birinchi so'zi yozuvda bosh harf bilan boshlanadi.

**1-mashq.** *O'qing. Gaplarning chegarasini aniqlang. Har bir gapning oxirida qanday tinish belgi qo'yilishini ayting.*

Rost gapiргan yetar murodiga yolg'onchilik kishinibeburd qilib, uning obro'-nufuziga putur yetkazadi, kishiga nisbatan ishonchni yo'qotadi oqibatda, uning yuziga qora tortilib, butunlay subutsiz qilib qo'yadi, subutsiz kishi el nazaridan qoladi.

Subutsiz

**2-mashq.** *Berilgan so'zlar ishtirokida gaplar tuzib yozing.*

1. Keladilar, bolalar, yugurib. 2. Bor, akvariumda, baliqlar. 3. Odil, keldi, kechikib. 4. Xat, akasidan, oldi, Olim. 5. Qopladi, bulut, osmonni. 6. Kurtak, erta, bahorda, daraxtlar, chiqardi.

Har bir gap biror maqsad bilan aytildi. **Gaplar xabar, so'rash, buyruq, iltimos, maslahat** mazmunini bildiradi.

Xabar mazmunini bildirgan gap **darak gap** deyiladi. Yozuvda **darak gapning oxiriga** nuqta (.) qo'yiladi.

So'rash mazmunini bildiradigan gap **so'roq gap** deyiladi. Yozuvda **so'roq gapning oxiriga so'roq** (?) belgisi qo'yiladi.

**Buyruq, maslahat, iltimos** mazmunini bildirgan gaplar **buyruq gaplar** deyiladi. Kuchi his-hayajon, quvonch, ajablanish bilan aytilgan gap **his-hayajon gap** deyiladi. Yozuvda buyruq gaplarning oxiriga (.) nuqta yoki undov (!) belgisi qo'yiladi.

### Suxandon

**3-mashq.** *O'qing. Har bir gap qanday mazmunni bildirayotganini ayting.*

1. Murodjon juda yoshligidan kitob o'qishni, musiqa tinglashni, turli mashinalarni tuzatishni sevardi.
2. Sarvar qanday qilib suxandon bo'lди?
3. Bolalar kelajakda kim bo'lish haqida bahslashdilar.
4. Guli sinfda tozalik guruhining boshlig'i.
5. Muallimni nima uchun hurmat qilamiz?
6. Murodjon yoshligida nimalarga qiziqar edi?

**4-mashq.** *O'qing. Har bir gapning kerakli joyida tinish belgilarini qo'yib, ko'chirib yozing.*

### O'ZBEKISTON – MENING VATANIM

Har bir kishining tug'ilib o'sgan joyi uning aziz va mo'tabar Vatani hisoblanadi biz O'zbekiston nomi bilan dunyoga mashhur bo'lgan go'zal Vatanda yashaymiz Vatanimiz keng va bepoyon unda yam-yashil vodiylar baland tog'lar daryo va ko'llar tobora obod bo'lib ko'rkmashmoqda O'zbekistonda Buxoro Samarqand Toshkent singari butun dunyoga mashhur bo'lgan shaharlar bor.

**5-mashq.** *She'rni ifodali o'qing. Yoddan yozing.*

*P. Mo'min*

Ko'klam chog'i  
G'uch gullabdi  
Shaftoli,  
Shoxlarida  
Nima izlar  
Chumoli?

**6-mashq.** *O'qish kitobidan darak gapga 2 ta gap topib yozing.*

## **GAPNING BOSH VA IKKINCHI DARAJALI BO'LAKLARI.**

### **BIR BOSH BO'LAKLI VA IKKI BOSH BO'LAKLI GAPLAR**

**7-mashq.** *O'qing. Har bir gapni ega va kesimini aniqlang.*

1. Zumrad turli xil qushlarning rasmini chizyapti.
2. Men xursand bo'lib ketdim.
3. Oyim boshimdan silab, peshonamdan o'pdilar.
4. Oydin hovliga chiqdi.
5. Qizcha issiqxonaga kirib chaman-chaman ochilib turgan gullarni ko'rdi.
6. Onasi juda chiroyli ko'ylakni kiyib, yasangan edi.

Ega va kesim gapning bosh bo'laklaridir. Gapning **kim** yoki **nima** haqida aytilganini bildirgan bo'lak **ega** deyiladi. Ega **kim?**, **kimlar?**, **nima?**, **nimalar?** kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: Munisa mактабга кeldi. Qizlar raqsga tushdilar. Eshik ochildi. Paxtalar ochildi.

Ega haqida nima deyilganini bildirgan gap bo'lagi kesim deyiladi. Kesim **nima qildi?**, **nima qilyapti?**,

*nima qiladi?, nima qilmoqchi?* kabi so'roqlarga javob bo'ladi. Masalan: **Onam bozordan ko'yak sotib oldilar.** Ega bilan kesim o'zaro bog'lanadi va **gap** hosil qiladi.

Ega va kesimdan boshqa bo'laklar gapning ikkinchi darajali bo'lagidir.

**8-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq berib, ular gapda qanday bo'lak ekanini aniqlang. Bir bosh bo'lakli gaplarni aniqlang.*

## KITOБ

**Kitob** – xazina, bilim – boylik. Kitob bir necha yillar avval **paydo bo'lgan**. Bu davrlarda u turli ko'rinishda **bo'lgan**. Kitob avval **loydan tayyorlangan**. Keyinchalik hayvon terisiga yozib kitob **qilingan**. Ustiga mum surtilgan taxtachalarga yozib **kitob tayyorlaganlar**. So'ng ipak matolardan, undan so'ng **qog'ozlardan** kitob **qilingan**.

Gapning asosida yo ega, yo kesim ishtirok etsa **bir bosh bo'lakli gap** deyiladi. Masalan: Kecha sayohatga **bordik**.

**9-mashq.** *O'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga so'roq bering va ularni o'zi bog'lanib kelgan so'z bilan birga ko'chiring.*

1. O'zim minadigan otni juda yaxshi ko'rardim.
2. Buvim saksondan oshgandan keyin birdan **ko'zları** xira tortib, bukchayib qoldilar.
3. Buvim kipriklarida yiltillagan yoshini yenglari bilan artib qo'ydilar.
4. Daraxtimning taqdiri nima bo'ldi, uni nimaga ishlatischdi?
5. Qadim zamonda menga o'xshagan kampirlarning hovlisida eniga quloch yetmas kattakon bir g'ujum daraxti o'sgan ekan.

**10-mashq.** *Matnni o'qing, matnga sarlavha toping. Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklarining tagiga chizing.*

Toshkent – O'zbekistonning poytaxti. U katta, chiroyli, madaniy va obod shahar. Toshkentda hashamatli va ko'p qavatli binolar, «Istiqlol saroyi», «Turkiston» saroyi, muzeylar, kutubxonalar, teatr va kinoteatrlar, stadionlar va go'zal xiyobonlar bor. Hammayoq chiroyli, go'zal. Yuzlab favvoralardan zilol suvlar otilib turadi. Ular shaharning husniga husn qo'shadi.

**11-mashq.** *O'qing. She'rning mazmunini qayta hikoya qilib bering. She'rga sarlavha topib qo'ying.*

*P. Mo'min*

Kelar edi palonchi  
Ikki qo'li cho'ntakda,  
Bunaqasi uchramas  
Hatto qadim cho'pchakda.

Undan ona bechora  
O'ksigani-o'ksigan.  
Salom bermas hech kimga  
Qo'lin qo'yib ko'ksiga.

Buni qarang, dunyoda  
Ishlar qiziq ekan-da!  
Chiqararkan qo'lini  
Faqat ovqat yeganda.

**12-mashq.** *Ertakni diqqat bilan o'qing va og'zaki davom ettiring.*

## MAQTANCHOQ QUYON

Kunlardan bir kuni jikkakkina ola quyon sheriklariga maqtanibdi:

– Bo'ridan qo'rqlmayman, tulkidan qo'rqlmayman, bir puflab osmonga uchirib yuboraman, – deb chiraniibdi.

Hamma uning mardligiga qoyil qolib, yoqa ushlab turganida birdan bo'ri kelib qolibdi...

**13-mashq.** *O'qing. Har bir gapni ega va kesimini aniqlang. Tagiga tegishlicha chizing.*

1. Kitob bolalarga yoqdi. 2. Furqat matematika fanini sevib o'qiydi. 3. Manzura bilan Gulnora buvidan xabar olib turar edilar. 4. Barno bobosiga achchiq choy damladi. 5. Do'stlari Jamshiddan o'rnak oladilar. 6. Bolalar sport maydonchasida o'ynadilar.

**14-mashq.** *Chiziqchalar o'rniga nima qildi?, nima qiladi? so'roqlariga mos so'zlarni tanlab, gapni to'ldiring. Bir bosh bo'lakli gaplarni aniqlang.*

## SUZUVCHI MAYMUNLAR

Makaka nomli maymun daraxtlarda yashashini ko'pchilik yaxshi \_\_\_\_\_. Shuning uchun uni mushuk kabi suvda suzishga o'rgatish juda mushkul masala deb \_\_\_\_\_. Makakalar o'z bolalarini juda yoshligidan suzishga o'rgata \_\_\_\_\_. Makaka bolasi ikki oylik bo'lmasdanoq onasi uni suvgaga o'rgatish uchun yelkasiga mindirib olib, daryo tomon odim \_\_\_\_\_.

**Qo'yish uchun so'zlar:** hisoblaydilar, biladi, tashlaydi, boshlaydilar.

**15-mashq.** *Chiziqlar o'rniga mos so'zlarni tanlab, gaplarni to'ldirib yozing. Ko'chiring, ega vazifasidagi so'zlarning tagiga chizing.*

Qobiljonning dadasi Olimjon aka kuzda bog'chaga har xil \_\_\_\_\_ o'tqazgan edi. Bahor kelib \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ ko'karib ketdi. Hademay \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ gulga kirdi, ularni tagida \_\_\_\_\_ ochildi. Buni ko'rgan \_\_\_\_\_ terisiga sig'may quvondi.

**Qo'yish uchun so'zlar:** Qobiljon, gunafshalar, ko'chatlar, daraxtlar, gullar, o'rik, shaftolilar.

**16-mashq.** *O'qing. Eganing tagiga chizing.*

Yaxshi bola – oila bog'i,  
Yomon esa dog'i.

Odobli bola ota-onaning umrini uzaytiradi.

Yaxshi farzand – oilani obod qiladi,  
Yomon barbod qiladi.

Qiz bola – oilaning zebi.

## GAPNING UYUSHIQ BO'LAKLARI

**17-mashq.** *O'qing. Ajratilgan so'zlarga savol bering. Ularni tagiga chizing.*

1. Har bir inson uchun otadan **ulug'** va **qadrdon**, onadan **mehribon** va **yaqin** inson yo'qdir.
2. Sodiq va vafodor do'st ulkim, o'z do'stidan ranjimaydi, do'stining dushmanini o'z dushmani deb biladi.
3. Kimda-kim o'z ona **diyorini**, **zamini-yu**, **oqar suvlarini**, **kimsasiz cho'llari-yu**, **dala-dashtlarini** qalbidan sevolsa, unday odam kam bo'lmaydi.
4. Inson hayotini charog'on qilgan, umrini bezagan ham vaqt.

Gapda bir xil so'roqqa javob bo'lgan bo'laklar **uyushiq bo'laklar** deyiladi.

Uyushiq bo'laklar sanash ohangi bilan o'qiladi, yozuvda ular orasiga vergul (,) qo'yiladi. Masalan: Bolalar, kitobni *asrab*, *avaylab* tuting!

Gapning uyushiq bo'laklari *ammo*, *lekin*, *biroq* bog'lovchilari bilan bog'lansa, shu bog'lovchilardan oldin vergul (,) qo'yiladi. *Va* bog'lovchisi bilan bog'lansa uyushiq bo'laklar orasiga vergul qo'yilmaydi.

### **18-mashq. O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang.**

1. Kuzda daraxt va butalarning barglari sariq va qizg'ish tusga kiradi. 2. Chumchuq, chittak, kaptar va musicha kabi qushlar kuzda o'lkamizda qishlab qoladilar. 3. Bahor faslida dehqonlar bog'lar, dalalarda, ekinzorlarda bahorgi yumushlarini boshlab yuborishadi. 4. 21-martda kun bilan tunning uzunligi baravarlashadi. 5. Mart boshlarida ob-havo o'zgarib turadi: iliqroq shamol esadi, kechqurun va ertalab tuman tushadi, yomg'ir, do'l yog'adi.

### **19-mashq. O'qing. Uyushiq bo'laklarni aniqlang. Qanday bo'laklar uyushib kelganini ayting, tagiga chizing.**

1. Zarg'aldoq – juda foydali qush. Ular bog' va o'rmonlar uchun zararli bo'lgan, boshqa parrandalar yoqtirmaydigan zaharli sertuk kapalak qurtlarini, daraxtda yashaydigan qo'ng'izlar va chigirtkalar bilan oziqlanadilar.

2. Ertak sandiq ochildi –

Hikoyat duri sochildi.

### **20-mashq. «To'rt oyoqli do'stlar» mavzusida og'zaki hikoya tuzing. Hikoyada Qashqa, To'rtko'z, Ziyrak, Momiq, Saman kabi hayvon nomlarini qo'llang.**

**21-mashq.** *Rasmni kuzating. Bahor tabiatini tasvirlab bayon yozing.*

## ZUMRAD BAHOR

**Reja:**

1. *Bahor keldi.*
2. *Bahor tabiatি.*
3. *Bahorgi ishlар.*
4. *Navro'z bayrami.*



**22-mashq.** *Maqollarni o'qing. Uyushiq bo'laklarning tagiga chizing.*

Aql – yoshdan, odob boshdan.  
Avval o'yla, keyin so'yla.  
Bulbul chamanni sevar,  
Odam – Vatanni.  
Rost so'zlagan yetar niyatga,  
Yolg'on degan qolar uyatga.

## SODDA VA QO'SHMA GAPLAR

23-mashq. *O'qing. Qo'shma gaplardagi bog'lovchilarni tagiga chizing.*

1. Ayozli kunlar boshlanibdi, o'rmondag'i hayvonlar qish uyqusiga tayyorlanibdilar. 2. Bahor kelibdi va kunlar isibdi. 3. Buvijonim ertak aytadilar, men esa osmonga tikilganimcha o'tiraveraman. 4. Men ham yulduzlardan birini tanlamoqchi bo'ldim, shuning uchun osmonga tikildim. 5. Ixtiyor bobo nabiralarini ko'rgani juda kam keladi, chunki uning ishi juda og'ir, qishin-yozin qir-u tog'larda poda boqadi. 6. Cho'ponlar odatda kamgap bo'ladilar, ammo Ixtiyor bobo unaqa emasdi, nabiralariga qiziq-qiziq hangomalar so'zlab beradi.

Sodda gaplarda bitta ega va kesim munosabati mavjud bo'ladi. **Qo'shma gaplarda** esa ikki yoki undan ortiq ega va kesim munosabati mavjud bo'ladi.

Demak, qo'shma gaplar ikki va undan ortiq sodda gaplarning mazmun va ohang jihatdan bog'lanishidan hosil bo'ladi.

Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro bog'lovchilarsiz faqat ohang yordamida bog'lansa, ular orasiga vergul (,) qo'yiladi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar **va** bog'lovchisi yordamida bog'lansa, ular orasiga vergul qo'yilmaydi.

Qo'shma gaplar tarkibidagi sodda gaplar o'zaro **ammo, lekin, biroq, shuning uchun** bog'lovchilari yordamida bog'lansa, shu bog'lovchilardan oldin vergul qo'yiladi.

**24-mashq.** *Topishmoqlarni o'qing, javobini toping. Topishmoqlarni eslab qoling.*

Oppoq tog'lar uyum-uyum,  
Undan bo'lar ko'rpa-kiyim.

Suvdek tiniq,  
Muzdek qattiq,  
Kaftdek silliq.

O'zim suyuq, rangim oq,  
Mendan bo'ladi qaymoq.  
Turli osh, qatiq, pishloq,  
Yosh-qariga men o'rtoq.

**25-mashq.** *So'zlarni o'qing. Shu so'zlardan foydalanib, gaplar o'ylab toping. Tuzgan gaplaringizdan hikoya yozing.*

Maktab, sinf, tanaffus, bordim, navbatchilik, qildim, o'stirdik, ekdik, ko'chat, gul, maktab, hovlisi, o'qituvchi, bo'ldilar, xursand, mahalla, o'z kuchimiz.

**26-mashq.** *«Men mактабда nimalarni o'rganaman» mavzusida hikoya tuzing. Hikoyangizni berilgan reja asosida bayon eting va yozing.*

#### **Reja:**

1. *Mening mактабим.*
2. *Mening ustozlarim.*
3. *Men qiziqqan fan.*

**27-mashq.** *O'qing. Qo'shma gaplarga mos bog'lovchilar qо'yib, gaplarni ko'chiring.*

1. Tajribali suvchi g'o'zalarni tunda sug'ordi, \_\_\_\_\_ chanqagan g'o'zalar sekin-asta jonlandi. 2. Kuchli shamol

- qo'zg'aldi \_\_\_\_\_ ulkan daraxtlar qattiq silkindi.  
3. Svetoforning yashil chirog'i yondi \_\_\_\_\_ yo'l ochildi.  
4. Nuri lolaning ochilishini kutibdi, \_\_\_\_\_ lola g'unchasi ochilmabdi.

**28-mashq. O'qing. Ko'chiring. Beg'ubor, ko'rakam, musaffo, tiniq so'zlarining ma'nosini aytib bering.**

### KO'KLAM

Beg'ubor olam	Nurga ko'milib,
Bunchalar ko'klam!	Yashnaydi o'lkam.
Musaffo, tiniq	Chunki elimda
Osmon juda ham.	Kezmoqda ko'klam!

### KO'CHIRMA GAPLAR

Birovni aynan keltirilgan gapi ko'chirma gap deyiladi. Ko'chirma gap muallif gapi bilan birga keladi. Muallif gapi ko'chirma gapdan oldin kelsa, u ikki nuqta (:) bilan ajratiladi va ko'chirma gap qo'shtirnoq (« ») ichiga olinadi. Ko'chirma gap so'roq yoki undov bo'lsa, so'roq (?) va undov (!) belgilari gapning oxiriga qo'yiladi va so'ngra qo'shtirnoq yopiladi. Ko'chirma gap darak gap bo'lsa, nuqta (.) qo'shtirnoqdan keyin qo'yiladi. «Sen buvingga salom berdingmi?» – deb so'radi onasi.

**29-mashq. O'qing. Tinish belgilariga diqqat qiling va esda saqlang.**

1. «Hunarli kishi xor bo'lmas», – deydi dono xalqimiz.
2. O'qituvchimiz: «Bugun shifokor bilan suhbat bo'ladi», – deb e'lon qildilar.
3. Buvim: «Ertalab barvaqt turib, hovli-uylarni supurib tozalasang, farishtalar parvona

bo'ladi», – deb nasihat qildilar. 4. «Darsga nega kech qolding?» – so'radi o'rtog'i. 5. «O'quv qurollaring esingdan chiqmasin», – dedi onasi.

**30-mashq.** *Qo'shtirnoq ichida muallif gapining mazmuniga mos ko'chirma gaplar qo'yib ko'chiring.*

1. «\_\_\_\_\_», – dedi opasi. 2. «\_\_\_\_\_?» – so'radi akasi.
3. «\_\_\_\_\_», – dedi do'sti. 4. «\_\_\_\_\_», – dedi o'qituvchisi.

**31-mashq.** *O'qing. Ko'chirma gaplarni o'qib, tinish belgilarini eslab qoling.*

1. O'rtog'i daraxtdan tushib: «Birodar, yo'lbars qulog'ingga nima deb so'zlab ketdi?» – so'rabdi. Yo'ldoshi: «Oh do'stim! Shodligingda o'rtoq bo'lib, g'am vaqtida tashlab qochadigan nomard kishilar ila yo'ldosh bo'lmagil», – dedi. 2. «Yaxshi sportchi bo'lish uchun ko'p mashq qilish, ko'p ter to'kish kerak», – dedi akasi mamnun jilmayib. 3. Samolyotdan qop tashlandi, unda oziq-ovqat va: «Mahkam bo'linglar. Yordam kelmoqda!» – deb yozilgan xat bor edi.

**32-mashq.** *O'qing. Tinish belgilarini qo'yib ko'chiring.*

... Qo'zi qo'rqa, pisa e, taqsir, oldin siz Karim boboning tuzidan olib keling, chunki go'shtim juda bemaza debdi. Shunda bo'ri xo'p bo'ladi deb tuz axtarib ketibdi, ungacha qo'zi qochib qolibdi. Bo'ri qarasa qo'zi yo'q emish. Hayron bo'lib borayotsa, bir joyda bir xo'roz turgan ekan. Bo'ri borib hoy xo'roz seni yeymen debdi. Xo'roz unga bo'lmasa oldin bir zira-piyoz qilaylik, meni undan keyin yeng. Buning uchun siz avval pichoq topib keling, men zira bilan piyoz keltirayin debdi.

**33-mashq. O'qing. Ko'chirma gaplarni topib, tinish belgilaringning qo'yilishini tushuntiring.**

1. Oysha qiz: «Soyada hordiq chiqarish yaxshi, ammo gullarga quyosh nuri kerak-da», – deb o'ylabdi.
2. «Endi, – debdi qorqiz, – biz shamollar mamlakatiga jo'naymiz».
3. «Men o'rnimdan qo'zg'alaman, – debdi qora Sayfi, – shamolga qarshi yurishga meni ham, otimni ham kuchi qolmadi».
4. Oq kaptar: «Nimaga yig'layapsan, bulut og'ajon, o'zingga rahming kelyaptimi?» – deb so'rabdi.

**34-mashq. 1. «Gulxan» jurnalidan 2 ta ko'chirma gap topib yozing. Yozgan gaplariningizda tinish belgilariga e'tibor bering.**

**2. Rasmga diqqat bilan qarang. 5–6 gapdan iborat hikoya tuzing va yozing.**



## DIALOG HAQIDA MA'LUMOT

Ikki yoki undan ortiq kishining suhbatini dialog deyiladi.

Dialogda har bir shaxsnинг gapi xat boshidan tire (–) qo'yilib yoziladi. Agar dialogda muallif gapi ishtirok etsa, ko'chirma gapda ishlataladigan tinish belgilar qo'yiladi, ammo qo'shtirnoq (« ») ishlatilmaydi.

**35-mashq.** *O'qing. Dialoglarni tinish belgisiga diqqat qiling.*

Bir kuni kampir qizga osh qilib bermoqchi bo'lib:

– Tomdan o'tin olib tush qizim, – debdi.

Qiz:

– Xo'p bo'ladi, onajon, – deb darrov tomga chiqibdi. Tom juda baland ekan, undan hammayoq ko'rinar ekan.

Qiz atrofga qarab turib, birdan o'z uyini tomini ko'rib qolibdi.

**36-mashq.** *O'qing. Matndan parchani o'qing. Tinish belgilari ni qo'yib, gaplarni ko'chiring.*

Assalomu alaykum debdi chol eshikdan kira turib, va'dangni bajarasanmi deb keldim, Laylakvoy, «qaynar xumcha»ni ber debdi chol. Oh debdi laylak bobo bir tovoq tilla beray. Yo'q deb ko'nmabdi chol. Laylak rozi bo'lib mana deb «qaynar xumcha»ni beribdi.

**37-mashq.** *Xandalarni o'qing. Tinish belgilariga e'tibor berib o'qing. Rollarga bo'lib o'qing va daftaringizga yozing.*

## XANDALAR

- Qaysi ko'chada turasan? – deya so'radi militsioner adashgan boladan.
- Men ko'chada emas, uyda turaman, – deb javob berdi ranjigan bola.

\* \* \*

- Hammayoq zimiston bo'ldi qo'ydi-e, – xafa bo'ldi oyisi tok o'chib qolgach.
- Oyijon televizorni yoqib qo'ying, hammayoq yorishib ketadi, – donolik qildi Sardor.

## Savol va topshiriqlar

1. *Darak, so'roq, buyruq va his-hayajon gaplarga misollar keltiring. Gap oxiriga qanday tinish belgisi qo'yiladi?*
2. *Gapning bosh bo'laklari deb nimaga aytildi?*
3. *Ikkinchi darajali bo'laklarni quyidagi gapda b'lgilang. Mevalar qiyg'os pishdi.*
4. *Gapning uyushiq bo'laklariga misol keltiring.*
5. *Qo'shma gapdagagi bog'lovchilarni ayting.*
6. *Qo'shma gapdagagi tinish belgilarini aytib bering, misol keltiring.*
7. *O'qish kitobidagi dialogni o'qib bering.*

# O'TILGANLARNI TAKRORLASH

---

**1-mashq.** *Har bir gapni ohangiga rioya qilib o'qing. Gaplarning qanday mazmunini bildirganini ayting.*

1. Tabiatni yaxshi bilgan va uni sevgan insongina uning boyliklaridan oqilona foydalanadi. 2. O'zbekiston Tamg'asida xalqimizning orzu-niyatlari qanday ifoda ettirilgan? 3. Ey oftob, ko'kdan mo'l nuringni sochaver! 4. Hovliga kirishingiz bilan to'rt xonali uyga ko'zingiz tushadi. 5. Siz, hayvonlar qonuni bilan yashagan Mauglini bilasizmi? 6. «O'z uyingni o'zing asra!»

**2-mashq.** *Berilgan so'zlardan foydalanib gaplar tuzing. Gaplarning oxirida qanday tinish belgilarini qo'yish kerak?*

1. biladi, hamma, almashib, borishini, yil, fasllari, bir-biri, bilan. 2. nima, bilasiz Jaloliddin Manguberdi, haqida, jasorati. 3. qil, xizmat, Vatanga, xalqqa, va. 4. holatdir, huzur, bag'ishlaydigan, insonga, kulgi. 5. o'tkazasiz, qanday, dam olish, kunlarini, siz.

**3-mashq.** «*Gulxan*» jurnalidan 3 ta gap yozing. Bitta darak gap, bitta so'roq gap, bitta buyruq belgili gap bo'lsin.

**4-mashq.** *Nuqtalar o'rniga so'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalardan mosini qo'yib, o'qing va ko'chiring.*

1. Paxta... har shonasi  
Mo'l hosil nishonasi.  
Pilla... har tolasi

- Shoyi atlas onasi.
2. To'da... ajralgan to'r... tushar.
  3. Oy tun... kerak  
Aql kun... kerak.
  4. Odob bozor... sotilmas.
  5. Osh... ta'mi tuz bilan  
Odam... ta'mi so'z bilan.
  6. Yaxshi... – sharofat  
Yomon... – kasofat.

**5-mashq.** *O'qing. O'zakdosh so'zlarni topib, belgilang.*

1. O'simliklar suvsiz o'sa olmaydilar.
2. Tokzorda uzumning turli navlari o'stiriladi.
3. Ipakchilik – xalq xo'jaligi uchun ipak tolasi yetkazib beruvchi sohadir.
4. Sut oq, suv esa rangsiz.

**6-mashq.** *She'rni o'qing. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarga savol bering. So'z turkumini aniqlang va belgilang.*

*A. Po'latov*

### **UYALIB QOLDI**

O'rtog'iga Zarifboy	Sevingandan tangasin
Tangasin qildi «ko'z-ko'z».	Qo'lidan-qo'lga <b>otdi</b> .
<b>Hayron</b> bo'lib o'rtog'i,	Birdan yerga <b>tushgandi</b> ,
Unga demadi bir so'z.	Topa olmay tutoqdi.
	Har yon boqib, qizardi,
	Ko'zlariga <b>yosh</b> oldi.
	O'zining qilmishidan
	<b>Juda uyalib qoldi.</b>

**7-mashq.** *Quyida berilgan davlat, o'lka, shahar nomlarini yozilishiga e'tibor bering va mustaqil davom ettiring.*

Myunxen, Andijon, Buyuk Britaniya, Qirg'iziston, Arabiston, Qarshi, Buxoro, Amerika Qo'shma Shtatlari...

**8-mashq.** *O'qing. Matnni ko'chiring, so'roqlar yordamida otlarni aniqlang. Hikoyaga sarlavha qo'ying.*

Qarchig'ay – juda ehtiyotkor qush, shuning uchun uni ko'rish qiyin. Ahyon-ahyonda o'rmon uzra uning qattiq qichqirgan ovozini eshitib qolish mumkin.

Qarchig'ay – yengil va tirishqoq o'rmon ovchisi. Uzoq vaqt pistirmada poylab turadi.

Qarchig'ayni kuchli, keng va kalta qanoti hatto qalin o'rmon ichida ham o'ljasini quvib yetishga imkon beradi.

Qarchig'ay o'rmon qushlari va hayvonlari uchun juda ayyor, xavfli dushman hisoblanadi.

**9-mashq.** *Berilgan birlikdagi otlarga -lar qo'shimchalarini qo'yib, so'zlarni yozing. Ular ishtirokida 3 ta gap tuzing.*

Qishloq, kitob, o'quvchi, meva, o'quv qurol, talaba, daryo, daraxt, anjom, yo'l, koptok, qiz, televizor.

**10-mashq.** *O'qing. Ko'chiring. Kim?, kimlar?, nima?, nimalar? so'rog'iga javob bo'lgan so'zlarni topib, ularning tagiga chizing. Matnni o'qib o'zingizga tegishli xulosa chiqaring.*

## NASIHAT

Bobom bizga foydali maslahatlar beradilar.

– Elektr nuri bo'lmasa, qorong'ida dars tayyorlay olmaysizlar. Shuning uchun kerak bo'lмаган chiroqlarni o'chirib qo'ying, – deydilar.

To'g'ri-da, agar yorug' bo'lmasa qanday yashash mumkin. Elektr insonlar uchun muhim narsa. Undan to'g'ri foydalanish zarur. Bobom ko'pni ko'rganlar, shuning uchun zarur nasihatlar beradilar.

– Tejamli bo'lishning foydasi ko'p, – deydilar bobom.

**11-mashq. O'qing. Chiziqlar o'rniغا kerakli so'zlarni qo'yib, gaplarni yozing. Otlarning tagiga chizing.**

1. Bahorda \_\_\_\_\_ kurtak chiqaradi, gullaydi. Mart oyida \_\_\_\_\_ va boshqa \_\_\_\_\_ uyg'onadi. \_\_\_\_\_ qurillab «qo'shiqlarini» boshlaydilar. Laylak, jiblajibon, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_ uchib keladilar. \_\_\_\_\_, \_\_\_\_\_, qishki uyqudan uyg'onadilar.

*Qo'yish uchun so'zlar:* daraxtlar, hasharotlar, jonivorlar, qurbaqalar, kakku, qaldirg'och, turnalar, ayiq, tipratikan.

**12-mashq. Berilgan so'zlardan birlikdagi otlarni bir ustunchaga, ko'plikdagi otlarni ikkinchi ustunchaga yozing.**

Bog', o'quvchilar, chumoli, quyosh, toshlar, odamlar, yoz, Zokir, qog'oz, yaproqlar, telefonlar, tanaffus, baliq, dars, Zilola, mehnat, tol.

**13-mashq. O'qish kitobidan kelishiklar bilan tugallangan kishilik olmoshlarni toping va daftaringizga yozing.**

**14-mashq.** *O'qing. Test savollariga to'g'ri javob bering.*

1. Biz... mактабимиз.

- A) -ning
- B) -ni
- D) -ga

2. Sen... sovg'a qildi.

- A) -da
- B) -ga
- D) -ni

3. Ular... maqtadilar.

- A) -ni
- B) -ga
- D) -ning

**15-mashq.** *She'rlarni o'qing. She'rlardagi sonlarni toping, ularni sonning qaysi turiga kirishini aniqlang. Sonlarni tagiga chizing.*

1. O'yinchoq g'isht

Topib qurdik imorat.  
Rosa baland,  
O'n qavatdan iborat.

2. To'rtta jo'ja

To'yib juda tariqqa,  
Bo'kib qolib  
Tushib ketdi ariqqa.

3. Ko'kka qarang,

Yetti xil rang kamalak.  
Keng osmonda  
Uchgandek zo'r kapalak.

**16-mashq.** *She'rlarni o'qing. Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llarning tagiga chizing.*

## O'ZGARISH

Boshim og'rigani yo'q,  
Oyog'im ham tolmadi.  
Qizlar mening dastimdan  
Darsdan ketib qolmadi.  
Xulqimni tuzatishga  
Qilib rosa harakat,  
Burchakda turdim bugun  
Atigi ... ikki soat.

## KEKCHI

– Ishing yaxshimi? – desam,  
Birrov qaramaysan ham.  
Yana yosh bolalardek  
Indamaysan-a, Hamdam?  
  
– Unutibs-san-da darrov  
Aytgan gapingni Turg'un?  
Meni kekchi degansan,  
Bundan olti kun burun!

**17-mashq.** *O'qing. Fe'llarni topib, ularning zamonini aniqlang. Fe'llarni quyidagi tartibda yozing.*

1. O'tgan zamon fe'li.
  2. Hozirgi zamon fe'li.
  3. Kelasi zamon fe'li.
1. Tarbiyachi bolalarni sayrga olib chiqdi.
  2. Karim ham akasi singari tabiat sirlarini o'rganuvchi geolog bo'lmoqchi.
  3. Sal o'tmay osmonni quyuq bulut qopladi.

4. Nodira osmonga qarayapti.
5. Katta bo'lsam, men ham Gulnora xoladek gullarni parvarish qilmoqchiman.
6. Hozir O'tkir sakkizinchi sinfda o'qimoqda.

**18-mashq.** *O'qing. Shahar (qishlog'ingizning) markaziy xiyoboniga sayohat uyushtiring. Ko'rganlariningiz asosida «Mening shahrim» («Mening qishlog'im») mavzusida mustaqil yozma ish yozing. Quyidagi rejalaridan foydalanishingiz mumkin.*

**Reja:**

1. Men yashab turgan shahrim (qishlog'im).
2. Shahrimning (qishlog'imning) ko'chalari.
3. Shahrimning (qishlog'imning) tabiat.
4. Men shahrimni (qishlog'imni) nima uchun sevaman?

**19-mashq.** *O'qing. She'rni ifodali o'qing, kelishiklar bilan turlangan kishilik olmoshlarini aniqlang va tagiga chizing.*

*A. Po'latov*

**AHMAD HAQMI?...**

Nega turtib, yig'latding  
Qiz bolani Ahmad?  
Bu ishing uchun senga  
Hech kim aytmaydi rahmat.  
– Nega o'zi tirjaydi,  
Bo'ldi turtmoqchi meni.  
Akam aytgan: – ur, qo'rhma,  
Kim tegib turtsa seni.  
Aytingiz siz: kimdir haq?  
Ahmad haqmi yo nohaq?

**20-mashq.** *Savollarni o'qing. Savollarga javob bering. Javoblariningizni daftaringizga yozib oling.*

### **Savollar**

1. *Sizning mакtab oldi tomorqangizda qanday madaniy o't-o'simliklar o'sadi?*
2. *Siz mакtab gulzorida qanday ishlarni bajarasiz?*
3. *O't-o'simliklar nima maqsadda ekiladi?*

### **Foydalanish uchun so'zlar**

1. *Chiroyli, xushbo'y, ochilib turadi, foydali, tirnoqgul, yerlar yumshatiladi, atrof, chiroyli bo'lishi uchun, suv quyamiz.*

**21-mashq.** *Matnni o'qing. Chiziqlar o'rнiga mos so'zlardan foydalanim gaplarni ko'chiring.*

### **XAZONREZGILIK QANDAY BOSHLANADI?**

Kuz yaqinlashib barglarning rangi o'zgarib \_\_\_\_\_. Oktabr boshlarida tutning, o'rtalarida tolning, oxirlarida chinorning, noyabrda nastarinning barglari to'kila \_\_\_\_\_. Barglar to'kilib ketgandan keyin novdalarda \_\_\_\_\_ qoladi. Ular kelgusi yil \_\_\_\_\_ ko'karadi.

*Qo'yish uchun so'zlar:* bormoqda, boshlaydi, kurtaklar, bahorda.

**22-mashq.** «*Kuzda kishilar mehnati» nomli hikoya tuzing va daftaringizda yozib oling. Quyidagi savollardan foydalaning.*

### **Savollar**

1. *Kuz oylarini aytib bering.*
2. *Kuzda nimalar pishadi?*
3. *Insonlar qanday mehnat turlari bilan shug'ullanadilar?*

**23-mashq.** *O'qing. Nima?, nimalar? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni topib tagiga chizing.*

### HASHAROTLAR

Hasharotlar juda ko'p. Ular hamma joyda: dalalarda, bog'larda, ekinzorlarda uchraydi. Ular daryolarda va hatto ko'lmak suvlarda ham yashaydi. Bu hasharotlarning foydalilari ham bor. Masalan, asalarilar, chumoli, tut ipak qurti ana shunday hasharotlardir. Lekin zararkunanda hasharotlar yana ham ko'p. Ular bizning xo'jaligimizga katta zarar yetkazadi.

**24-mashq.** *Topishmoqlarni o'qing va javobini toping. Daftaringizga yozib oling.*

1. Kecha-yu kunduz yurib tolmaymiz,  
Lekin hech qayerga bora olmaymiz. (soz)
2. Qizil, sariq tovlanar,  
Yerga tutdek yog'ilar. (barq)
3. Ikki o'rtoq bir-birini ko'rmaydi. (koz)

**25-mashq.** *Rasmlarni kuzating. Berilgan savollarga javob bering va daftaringizga yozib oling.*

### Savollar

1. Rasmlarda qanday kasblar tasvirlangan?
2. Ota-onangiz kim bo'lib ishlashadi?
3. Maktabni tugatgandan keyin kim bo'lmoqchisiz?



**26-mashq. Savollarni o'qing. Savollarga yozma javob bering. Javoblarni daftaringizga yozib oling.**

### Savollar

1. Qishloqda transportning qaysi turidan foydalaniladi?
2. Transportning qaysi turi shaharni qishloq bilan bog'laydi?
3. Shaharda qaysi transportdan foydalaniladi?
4. Odamlar nimada uchishadi?
5. Odamlar nimada suzishadi?



**27-mashq.** *O'qing. Foydali maslahatlarni o'qing, esda tuting va daftaringizga yozib oling.*

1. Kaktus, yorongul 4–5 tacha bargi bo'lgan qalamchasidan ko'paytiriladi.
2. Limon qalamchadan va urug'idan ko'paytiriladi.
3. Havo ochiq kuni kechga yaqin tuman tushsa, kechasi sovuq bo'ladi.

**28-mashq.** *O'qing. She'rda so'z turkumlarini toping va ularni tegishlichcha chizing.*

## DUNYODA KO'PDIR HUNAR

Dunyoda ko'pdir hunar,  
Hammasi ham zo'r ular.  
Biri birin to'ldirar,  
Biri birin jildirar.

Zarurlikda, nechog'lik,  
Biri biriga bog'liq.  
Hunarli barcha joyda,  
Elga keltirar foyda.

Yer-u dengiz, osmonda,  
Demak, hamma tomonda,  
Hunarlilar xizmatda,  
Va hurmatda, albatta.

Dunyoda ko'pdir hunar,  
Hammasi ham zo'r ular.

**29-mashq.** *Quyidagi maqollarni o'qing va ma'nosini ayting. Maqollarni daftaringizga yozib oling.*

Kitob – bilim manbai.

Ilmsiz – bir yashar,  
Ilmlı – ming yashar.

**30-mashq.** *Matnni o'qing. Matndagi fe'llarni aniqlab, ularni tegishlichcha belgilang.*

## XONA GULLARI

Sinfimizda pechakgul, kaktus, yorongul, binafsha va boshqa gullar juda ko'p. Bular ko'p yillik o'simliklardir.

Ularning bargi har doim yashil bo'ladi. Bunday o'simliklar – doimiy yashil o'simliklar deb ataladi. Ular issiq mamlakatlardan keltirilgan. Bu gullar o'z vatanida baland va qalin bo'lib o'sib, chakalakzorlar hosil qiladi. Bizning o'rmonlarimizda qish sovuq bo'lishi tufayli janub o'simliklari ochiq joyda o'sa olmaydi, shuning uchun ularni xonada o'stiramiz. O'simliklar uchun yorug'lik zarur. Shuning uchun xona gullarini deraza tokchalariga qo'yib o'stiramiz.

**31-mashq. Savollarni o'qing. Savollarga og'zaki javob bering. Javoblarni daftaringizga yozib oling.**

### Savollar

1. *Bolalar qayerda sport o'yinlarini o'ynashlari mumkin?*
2. *Nima uchun ko'chaning transport yuradigan qismida o'ynash mumkin emas?*
3. *Bolalar rasmi solingan belgilar qayerga o'rnatiladi?*
4. «*Piyodalarning o'tish joyi» belgisi nimani bildiradi?*


**32-mashq. Matnni o'qing. Matnga reja tuzib, daftaringizga ko'chirib yozing. Uy hayvonlari haqida yana nimalarni bilasiz?**

### UY HAYVONLARI

Yer yuzida hayvonlar juda ko'p, lekin ularning ayrimlari inson bilan yonma-yon yashaydi. Ular sigir, qo'y, ot, tuya, it, mushuk va boshqalardir. Bular uy hayvonlari deb ataladi.

Uy hayvonlari odamga foyda keltiradi, shuning uchun odamlar ularni ko'paytiradi va ularga g'amxo'rlik qiladi: ular uchun quruq va yorug' molxonalar quriladi, o'z

vaqtida yaxshi parvarish qilinadi. Uy hayvonlari odamdan qo'rqmaydi. Uy hayvonlarining deyarli hammasi qishloq xo'jalik hayvonidir. Ular oziq mahsulotlari: go'sht, sut, yog'; sanoat uchun xom ashyo: teri, jun va boshqalar yetishtirish uchun boqiladi. Uy hayvonlarining ayrimlari odamning haqiqiy do'stidir. It odamga naqadar sodiq ekanligini hammamiz yaxshi bilamiz. U uyimizni, podani qo'riqlaydi, uy egasini himoya qiladi, chegarada xizmat burchini bajaradi.



**33-mashq.** *O'qing. Chiroyli yozish qoidalariga amal qilib, she'rni ko'chirib oling. She'rni yod oling.*

*M. Eshmuhamedova*

### **OROMGOH QO'SHIG'I**

Baland tog'lar qo'ynida  
Go'zal bir oromgoh bor.  
Uning ko'rkar bag'rida,  
Dam olamiz baxtiyor.

Naqorat:

Go'zal yoz o'tar soz,  
Oromgohjon – oromgoh.  
Semurg' baxt qushi  
Osmon uzra qanot qoq.

«Semurg'» deb ataymiz  
Bizlar sening nomingni.  
Har yil kelib totiyimiz  
Osh-u tuz-u noningni.

Naqorat:

Go'zal yoz o'tar soz,  
Oromgohjon – oromgoh.  
Semurg' baxt qushi  
Osmon uzra qanot qoq.

# ISH QOG'OZLARI NAMUNALARI

## ARIZA NAMUNASI

Toshkent shahar  
Yunusobod tumani  
150-bog'cha mudirasi  
M. Shokirovaga  
12-maktab 8«A»-sinf o'quvchisi  
N. Po'latovadan

## ARIZA

Men Toshkent shahridagi 12-maktab 8«A»-sinfda o'qiymen. Yozgi ta'til vaqtida tarbiyachi yordamchisi vazifasida ishslash istagim bor. Meni vaqtinchalik 3 oy muddatga ishga qabul qilishingizni so'rayman.

Imzo, sana

## tilxat namunasi

12-maktab kutubxona  
mudirasi N. Oyto'rayevaga  
8 «B»-sinf o'quvchisi, sardori  
M. Soliyevadan

## tilxat

Sinfimiz o'quv yilining boshida foydalanish uchun olgan «Ona tili» darsliklaridan 5 donasi o'quv yilining oxirida ta'mirga muhtoj holga kelib qolgan. Ularni bir hafta ichida ta'mirlab beramiz.

8 «B»-sinf sardori: M. Soliyeva  
sana, imzo.

## DEVORIY GAZETA UCHUN MAQOLA NAMUNASI

### USTOZ – ULUG‘ ZOT

O'qituvchi – ustoz, avvalambor, o'z kasbini, o'z fanining mohir ustasi, aqli, dono va haqiqiy inson bo'lishi, bolalarni sevishi, yosh avlodni ezgulikka, yaxshilikka, mehr-shafqatga undashi kerak. O'qituvchi maktabda bolaga ma'naviy ustoz bo'ladi, uning kiyinishi, yurish-turishi, muomalasi ham shogirdlariga doimo o'rnakdir. O'qituvchi hali harf yozishni, chizishni, o'qishni bilmaydigan bolaga savod o'rgatadi, fan cho'qqilari sari yetaklaydi. Kasb-hunar o'rgatadi. Ustoz doimo o'z shogirdlarini aqli, o'qimishli, odobli bo'lishini orzu qiladi. «Ustoz» deganda bolaga ilm-ma'rifat, kasb-hunar o'rganishga undagan, kuyunchak inson tushuniladi.

Haq yo'lida kim senga bir harf o'qitmish  
ranj ila,  
Aylamak bo'lmas ado oning haqin yuz  
ganj ila.

*Alisher Navoiy*

Qiyoş etgim keladi ustozlarni quyoshga,  
O'z mehrini – nurini baxsh etadi har yoshga,  
Ustoz yo'li porloqdir, ustoz yo'li yorug'dir,  
Ustoz ko'ngli xazina, saxovatga to'liqdir.  
Yet sang ustoz qadriga otang kabi ulug'dir.  
Ulug'dir u, otangdan ham ulug'dir.

## **TARJIMAYI HOL NAMUNASI**

Men, G'ulomov Jaloliddin Ismoiljonovich, 10.01.2000-yilda, Toshkent shahrida tug'ilganman. 2007-yilda Toshkent shahar Yunusobod tumanidagi 12-maktabning 1-sinfiga o'qishga qabul qilindim. Hozir shu maktabning 8-sinfida o'qiyapman.

Otam – tijoratchi.

Onam – 500-bog'chada, tarbiyachi.

Akam – kasb-hunar kollejida, 2-bosqich talabasi.

Opam – «Yulduz» fabrikasida tikuvchi.

Manzilimiz: Toshkent sh. Yunusobod tumani 18-Mavze, 6-uy, 30-xonodon.

Imzo, sana

# LUG'AT

---

<b>A</b>	Iroda	Qahramon	<b>Y</b>
A'zo	Istiqlol	Qandil	Yax
Arbob	J	Qimmat	Yelpig'ich
Asror	Jahon	R	Yetti
<b>B</b>	Jamg'arma	Radio	Yong'oq
Baho	Jamiyat	Ro'yxat	Yorug'
Bebaho	K	Rost	Yulduz
Beshik	Kamalak	Ruxsat	Z
<b>D</b>	Kamolot	S	Zangori
Dala	Kasbdosh	Sahifa	Zebigardon
Dalolatnama	Kompyuter	Sajdagoh	Zehn
Do'st	L	Sarpo	Zona
Dunyo	Lafz	Sayohat	O'
<b>E</b>	Latifa	T	O'qituvchi
Ekin	Lavlagi	Tabib	O'tkir
Ellik	Lift	Taom	O'zbekiston
Erkin	M	Tinchlik	G'
<b>F</b>	Mahalla	Toshibaqa	G'alaba
Fikr	Mehnat	U	G'alva
Foiz	Motamsaro	Udum	G'alvir
Fuqaro	Muhim	Ufq	G'arq
<b>G</b>	O	Umr	Sh
Fursat	Ofat	Uzuk	Shabada
Gazeta	Oftob	V	Shamol
Guldon	Oila	Vahima	Shashka
<b>H</b>	Olim	Viloyat	She'r
Hamshira	Oqshom	Volida	Ch
<b>P</b>	P	X	Charm
Himoya	Paxsa	Xabar	Chiroy
<b>I</b>	Paxta	Xazon	Cho'pon
Ibrat	Pilla	Xodim	
Idish	Q		
Inson	Qadr		

## Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bolalar ensiklopediyasi. – T.: «Sharq» NMAK, 2009.
2. B. Ma'qulova, S. Matchon. Kitobim – oftobim. – T.: Abu Ali ibn Sino, 1996.
3. B. Ma'qulova, T. Adashboyev. Kitobim – oftobim. – T.: Abu Ali ibn Sino, 2002.
4. Z. Valiyeva, Y. Muhibov. – T.: Iqtisod alifbosi, 1996.
5. «G'uncha» davriy jurnallari.
6. S. Rizoyev. «Qaldirg'och». – T.: Kamalak, 1994.
7. «Gulxan» davriy jurnallari.
8. S. Fuzailov, M. Xudoyberganova, Sh. Yo'ldosheva. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 2014, 144 b.
9. R. Ikromova, X. G'ulomova, Sh. Yo'ldosheva, D. Shodmon-qulova. Ona tili. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik. – T.: «O'qituvchi», 2013, 192 b.
10. «Odob – axloqga oid hadis namunalari». T.: «Fan», 1970.
11. T. Javliyev. «An'analar – hayot sabog'i» – T.: «O'zbekiston», 1992.
12. I. Jo'rabekov. «Yangi O'zbekiston – yangi qadamlar». T.: «O'zbekiston», 1994.
13. U. Maxkamov. «Axloq – odob saboqlari». – T.: «Fan», 1994.
14. A. Pöllatov. Ойбарчин чизган расм. – Т.: «Ёш гвардия», 1985, 45 б.
15. A. Pöllatov. Мактабда холни ўрганиш. – Т.: «Ўқитувчи» 1978, 76 б.

# MUNDARIJA

---

<b>Takrorlash .....</b>	<b>4</b>
Sodda va qo'shma gaplar .....	4
Sodda yoyiq gapdagi ega va kesim .....	5
Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari .....	6
Darak, so'roq, buyruq va his-hayajon gaplar .....	8
Uyushiq bo'lakli gaplar .....	9
 <b>So'z .....</b>	 <b>11</b>
So'z tarkibi. O'zak va o'zakdosh so'zlar .....	11
So'z yasovchi qo'shimchalar .....	12
So'zlarni o'zaro bog'lovchi qo'shimchalar .....	15
So'z turkumlari .....	19
Ot – so'z turkumi .....	20
Atoqli va turdosh otlar .....	24
Otlarda birlik va ko'plik .....	25
Otlarning egalik qo'shimchalari bilan turlanishi .....	27
Qo'shma otlar .....	30
Qisqartma otlar .....	32
Sifat – so'z turkumi .....	33
Sifat darajalari .....	38
Oddiy daraja .....	39
Qiyosiy daraja .....	40
Orttirma daraja .....	41
Son – so'z turkumi. Miqdor va tartib sonlar .....	44
Miqdor sonning turlari va grammatick belgilari .....	46
Sanoq son va dona son .....	46
Chama son, jamlovchi son, taqsim son, kasr son .....	48
Tartib son .....	50
Qo'shma va juft sonlar .....	51
Olmosh – so'z turkumi .....	55
Kishilik olmoshlari .....	57

Kishilik olmoshlarining kelishiklar bilan turlanishi .....	61
Fe'l – so'z turkumi .....	63
Fe'lning gapdagi vazifasi.....	65
Bo'lishli va bo'lishsiz fe'llar .....	67
Fe'l zamonlari.....	70
O'tgan zamon fe'li va uning tuslanishi.....	73
Hozirgi zamon fe'li va uning tuslanishi .....	75
Kelasi zamon fe'li va uning tuslanishi .....	77
Qo'shma fe'llar .....	79
Juft fe'llar .....	81
Ravish – so'z turkumi.....	83
Ravishlarning ma'no jihatidan turlari. Holat va payt ravishi .....	86
O'rin va daraja-miqdor ravishi .....	88
<b>Nutq va gap.....</b>	<b>90</b>
Gap va uning turlari. Darak, so'roq va undov gaplar .....	90
Gapning bosh va ikkinchi darajali bo'laklari.	
Bir bosh bo'lakli va ikki bosh bo'lakli gaplar .....	92
Gapning uyushiq bo'laklari .....	96
Sodda va qo'shma gaplar .....	99
Ko'chirma gaplar .....	101
Dialog haqida ma'lumot .....	104
<b>O'tilganlarni takrorlash .....</b>	<b>106</b>
<b>Ish qog'ozlari namunalarি .....</b>	<b>121</b>
Ariza namunasi .....	121
Devoriy gazeta uchun maqola namunasi .....	122
Tarjimayi hol namunasi .....	123
<b>Lug'at .....</b>	<b>124</b>

AMMOA9

*Shahlo Axatovna Karimova,  
Oybarchin Axatovna Maxmudova*

## **ONA TILI**

*Imkoniyatlari cheklangan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab  
va maktab-internatlarning 8-sinfi uchun darslik  
(Aqliy rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun)*

**Muharrir T. Nazarov**

**Texnik muharrir D. Salixova**

**Badiiy muharrir J. Gurova**

**Musahhih Sh. Ilhombekova**

**Kompyuterda tayyorlovchi E. Kim**

Original-maket «NISO POLIGRAF» nashriyotida tayyorlandi.

Toshkent viloyati, O'rta Chirchiq tumani, «Oq-Ota» QFY,

Mash'al mahallasi, Markaziy ko'chasi, 1-uy.

Litsenziya raqami AI № 265.24.04.2015.

Bosishga 2015 yil 27 iyulda ruxsat etildi. Bichimi  $70 \times 90^{1/16}$ .

Ofset qog'ozি. «SHKOLNAYA» garniturasi. Kegli 14.

Shartli bosma tabog'i 8,0. Nashr tabog'i 6,4. Adadi 953 nusxa.

Buyurtma №15-549.

«O'ZBEKISTON» NMIU bosmaxonasida chop etildi.

Toshkent sh., A. Navoiy ko'chasi, 30-uy.

**РАССЫЛКА**

Sotuvga chiqarish taqiqlanadi



ISBN 978-9943-4317-7

A standard linear barcode representing the ISBN number.

9 789943 431775